

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI***

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI***

5111000-KASB TA‘LIMI:

(5150400 – Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi))

DAK raisi

_____ **professor B.Xodjayev**

«_____» _____ 2017 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: «AKTYORLIK IJROSIDA GRIM SAN‘ATINING
AHAMIYATI»**

Bajardi: Robiya RIZAYEVA

Ilmiy rahbar: “Estrada va ommaviy
tomoshalar san‘ati” kafedrasi o‘qituvchisi
Doston HAKIMOV

*Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedraning 2017 yil _____dagi
____–sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.*

Toshkent - 2017

R E J A

Kirish	3
 I bob. Aktyorlik san'atida badiiy-ifodaviy vositalarning nazariy- metodologik asoslari	
1.1. Aktyorlik san'atining ijtimoiy-ma'naviy asoslari	8
1.2. Grim san'ati tarixi va uning badiiy-ifodaviy omillari	22
 II bob. Aktyorlik ijrosida grim san'ati orqali badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirishni modernizatsiyalashning didaktik parametrlari	
2.1. Aktyor grimi ustida ishlashning kontseptual asoslari	32
2.2. Grim ustida ishlashning ma'naviy-estetik va tashkiliy ahamiyati	55
 Xulosa	 64
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	 66

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalariga aylanib qoldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga katta va uzluksiz e'tibor berib kelinmoqda.

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: ... dunyo ahli O'zbekistonni taniy boshladi. O'zbekistonning buyuk iqtisodiy va ma'naviy imkoniyatlaridan xabardor bo'ldi¹. Haqiqatdan faqat ma'naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishish mumkin.

San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agarki har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi².

Mustaqillik boshqa sohalar kabi san'at rivojiga ham katta imkoniyatlarni ochib berdi. Xalqimizning ma'naviy-madaniy ravnaqida san'at, ayniqsa teatr, musiqa, ommaviy bayram va tomoshalarning ahamiyati juda ham kattadir.

Milliy an'analar va ma'naviyatni tiklash, insonning madaniy-ma'naviy va intellektual manfaatlarini ro'yobga chiqarishga katta ahamiyat bermiq lozim.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 6.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 158.

Milliy tasviriyl va amaliyl san'atni tiklash va yanada rivojlantirish, kishilarning tasviriyl san'at, xalq ijodiyoti xazinalaridan bahramand bo'lishiga sharoit yaratish maqsadida Badiiy akademiya tashkil etildi. Mamlakatimizning teatr-madaniyl hayoti ancha boy va qiziqarli bo'lib qoldi. Ko'plab teatrlarning repertuari tubdan yangilandi. Yetakchi teatrlar sahnalarida mamlakatimiz tarixini va bugungi hayotini aks ettiruvchi ko'plab spektakillar premerasi muvaffaqiyat bilan o'tdi. Xalq ijodiyoti, milliy xoreografiyani qayta tiklashga ham katta e'tibor berilmoqda¹.

Ushbu yillarda davlatimizda o'tkazilgan siyosiy, iqtisodiy, madaniyl-ma'naviyl islohatlar san'atning yo'lini belgilab, estetik mezonlarni aniqlab berdi. San'atimiz sho'rolar davridagi estetik pozitsiyalardan, juda ham oldinlab ketdi.

Bu holat teatr san'ati, jumladan aktyorlar oldiga ham zamon qahramonini yaratish, ma'nan yetuk va estetik tarbiyaga ega sahna asarlarini yaratish, tomoshabinning estetik didini tarbiyalash kabi muhim vazifalarni yukladi.

Aktyor teatrdagi asosiy shaxs hisoblanib, uning nafaqat sahnaviyl ijrosi, aktyorlik mahorati, balki shaxsiyl xatti-harakatlari ham qiziquvchan tomoshabinni befarq qoldirmaydi.

Aktyorlik ijrosida mahorat, nutq, xatti-harakat bilan yana bir qancha badiiy vositalar borki, ular aktyor ijrosining badiiyligini ta'minlab, uning mahoratini oshirish bilan birgalikda aktyorga ijro jarayonida yordam beradi.

Mana shunday badiiy vositalardan biri bu grim bo'lib, aktyorning o'zga shaxs qiyofasini yaratishdagi muhim komponentdir. Rol qanchalik murakkab va mas'uliyatli bo'lsa, grim ham shunchalik aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bir necha chizgi yoki detellar obraz xarakterini mukammal ochib berishi kerak. Bunday zaruriyl xususiyatlar faqatgina jiddiyl va sermulohaza izlanishlar natijasida, shu bilan birga, pessani o'qishdan boshlab, butun rol ustida ishlash davomida topilishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagilar **mavzuning dolzarbligini** qamrab oladi:

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – B. 290.

- aktyorlik san’atida grim san’atining ahamiyati rejissyorlik ta’limi yo‘nalishida bitiruv malakaviy ishi obekti sifatida o‘rganilmagan;
- grim san’ati tarixi va uning badiiy-ifodaviy omillari ilmiy tahlil etilmagan;
- aktyor grimi ustida ishlash usullarining pedagogik aspektlari ilmiy yoritilmagan;
- grim tayyorlashning tashkiliy asoslari tahlil etilmagan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotchilar tomonidan aktyorlik ijrosida grim san’atining ahamiyati yuzasidan turli tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, J.W.Kirk, R.A.Bellas¹, Stanislavskiy K.S.², Galeeny X.Sch³, Pichsek G.Dh⁴, Lenskiy A. P⁵, Livshits P. B⁶, Raugul R.D⁷, Steimann A⁸, Siromyatnikova I.S⁹, Usmonov R.I¹⁰, Mahmudov J., Mahmudova X¹¹, Sayfullayev B.S¹², Ismoilov M.I¹³, Abdullayeva M¹⁴, Ahmedov F.E¹⁵, Jalilova F.S¹⁶, Mamatqosimov J.A¹⁷, Yusupova M.R¹⁸. va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida rejissyorlik va aktyorlik san’atida ijodiy uslublar haqida ma’lumot berilgan.

Tadqiqot maqsadi. Aktyorlik ijrosida grim san’atining ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va jarayonga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

-
- ¹ John W. Kirk, Ralph A. Bellas “The art of Directing”. Text book for Directors and Actors, Coloforniya, 1985.
- ² Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 468 b.
- ³ Galeeny X.Sch. Schauspieler Make-up. – Frankfurt am Main: Pferd, 2003. 184-b.
- ⁴ Pichsek G.Dh. Grime art. – Gamburg: Weiße Wolke, 1998. 221- b.
- ⁵ Ленский А.П. Заметки о мимике и гриме / Статьи. Письма. Записки. – Москва, 1950.
- ⁶ Лившиц П. Б. Сценический грим. – Москва, 1939. 162 стр.
- ⁷ Раугул Р.Д. Грим. – Москва, 1939. 142 стр.
- ⁸ Steimann A. Die Maske des Bühnenkünstlers. Velhagen-Klasings Monatshefte. 1909. 168-b.
- ⁹ Сыромятникова И.С. Искусство грима и макияжа. – Москва: Рипол Классик, 2004. 272 стр.
- ¹⁰ Usmonov R.I. Rejissura. – Toshkent: Fan, 1997. 222 – b.
- ¹¹ Mahmudov J., Mahmudova X. Rejissura asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 224– b.; Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Bilim, 2005. – 192 b.
- ¹² Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
- ¹³ Ismoilov M. Sahna pardozi. – Toshkent: Istiqol, 2004. – 124 b.
- ¹⁴ Abdullayeva M. Rejissura. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 176 b.
- ¹⁵ Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
- ¹⁶ Jalilova F. Grim. – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 216 b.
- ¹⁷ Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b.
- ¹⁸ Yusupova M.R. va boshqalar. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: O‘zR FA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2015. 128 b.

- aktyorlik ijrosida grim san'atining badiiy ahamiyatini o'rganish;
- zamonaviy teatr san'atida grimning innovatsion usullarini targ'ib etish;
- muammoga doir tarixiy, falsafiy, pedagogik-psixologik manbalarni o'rganish;
- zamonaviy ta'limda "Grim" fanini o'qitishning texnologik jihatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Bitiruv malakaviy ishining metodologiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Respublika qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va madaniyat-san'atga oid farmonlar, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy Majlis sessiyalari materiallari, Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, bayram va tomosha san'atiga oid qarashlari, pedagogika va san'atshunoslik ixtisosligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan iborat.

Tadqiqot ishining metodi.

- mavzuga doir falsafiy, pedagogik, psixologik va ixtisoslik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;
- qiyosiy-pedagogik tahlil;
- anketa, suhbat, kuzatish;

Tadqiqot obekti. Aktyorlik ijrosida grim san'atining ahamiyatini o'rganish va amalga oshirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Aktyorlik ijrosida grim san'atining ahamiyatini asoslash va amaliyotga tadbiq etish usullari.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.

- aktyorlik san'atida grim san'atining ahamiyati rejissyorlik ta'limi yo'nalishida bitiruv malakaviy ishi obekti sifatida o'rganildi;
- grim san'ati tarixi va uning badiiy-ifodaviy omillari o'rganildi;
- aktyor grimi ustida ishlash usullari ilmiy tahlil etildi;
- grim tayyorlashning tashkiliy asoslari yoritildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Respublika madaniyat va san'at kollejlari ixtisoslik fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishda, musiqa va san'at maktablaridagi teatr san'atiga ixtisoslashgan to'garaklarda, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning badiiy-ifodaviy ahamiyatini oshirishning shakli, vosita va metodlari bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotdan estrada va ommaviy tomoshalarni sahnalashtirishda foydalanish mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishining tuzilishi. Kirish qismi, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. AKTYORLIK SAN'ATIDA BADIY-IFODAVIY VOSITALARNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Aktyorlik san'atining ijtimoiy-ma'naviy asoslari

Tarixdan ma'lumki, tarbiya jarayonida badiiy-estetik dunyoqarashni shakllantirishda san'atning, xususan, teatr va uning asosiy figurasi bo'lgan aktyorning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, mehr-muruvvat, sadoqat tuyg'ularini kuchaytirishda aktyorlik san'ati imkoniyatlari nihoyatda katta.

Teatr – “Theatron” yunonchadan o'zbekchaga tarjima qilinganda “tomoshagoh”, “tomosha joyi” ma'nolarini anglatadi¹. Teatr san'ati xalq hayoti va uning milliy tarixi, madaniyati bilan chambaras bog'liq bo'ladi. Teatrda aktyor tomoshabin ko'zi oldida hayotni so'z va dramatik harakatlar orqali aks ettiradi. Teatr san'ati voqelikni badiiy obrazlar tizimi vositasida ko'rsatadi. Teatr ommaning ma'naviy-siyosiy, estetik tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Teatr sintetik san'at bo'lib, adabiyot, musiqa, opera, operetta, libretto, balet, tasviriy san'at, raqs va arxitekturaning ajralmas birligini tashkil qiladi. Teatr uzoq tarixga ega bo'lib, ibtidoiy davrda, bayramlarda tabiat hodisalariga, turli hayvonlarga, mavsumlarga sig'inish kabi xalq o'yinlaridan boshlangan².

Aktyorsiz teatrni tasavvur qilib bo'lmaydi. Butun teatr tarixida, qadim-qadimdan niqoblar komediyasi bo'ladimi, xalq teatri bo'ladimi, maydonchadagi tomoshalar bo'ladimi barcha-barchasi aktyorlik san'ati bilan bog'liq. Muallif olg'a surgan g'oya va fikrlarni aktyor ham tengma-teng baham ko'radi, o'z vujudi, jussasi orqali dramaturg qiyofalarini ifodalaydi, ijtimoiy muammolarini namoyon qiluvchi ijodkor shaxs - san'atkorga aylanadi. Aktyor dramaturg kabi ijodkor san'atkordir. Dramaturg bergan holat va matnlar asosida aktyor o'zining jismoniy va ruhiy tabiati bilan badiiy sahna qiyofasini yarata olsa bu uning katta muvaffaqiyati bo'ladi. Aktyorning bosh maqsadi badiiy qiyofa yaratishdir. Aktyor ijodining o'ziga xos xislati u bir vaqtning o'zida ijod qiladi va ijodga o'zi material

¹ Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 19.

² Minavarov SH. Teatr tarbiya maskani. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – B. 4-5.

hisoblanadi. Ijodning obekti ham, subekti ham o‘zi. Barcha san’at turlaridan aktyor ijodi o‘zgacha - bu ijod uning jussasi, ovozi, aql-idroki va tuyg‘ulariga bog‘liq”¹.

Aktyorlik san’atida ijodiy yetuklikni ta’minlovchi eng muhim omil bu – hali aktyor bo‘lmasdan oldin egallangan nazariy va amaliy bilimlar va sohadagi ijodiy oqimlarni o‘zlashtirish, soha mutaxassislari tomonidan to‘plangan ilg‘or tajribalarni amaliyotga qo‘llay olish ko‘nikmasi va malakasiga ega bo‘lishdir.

Aktyor - lotincha – “akt”, “akto” so‘zlaridan olingan bo‘lib, harakat degan ma’noni anglatadi. Bir so‘z bilan aytganda aktyor bu – xatti-harakat qiluvchi shaxs².

Drama, opera, balet, qo‘g‘irchoq teatri, sirk, teatr, kino, radio (inseniroyka, postanovka, montaj) va televideniya rollar ijro etuvchi shaxs, artist³.

Tarixiy manbalar va san’atshunos tadqiqotchilarning shohidlik berishicha aktyorlik san’ati insoniyatning ilk tomosha unsurlari, ya’ni ovchilik o‘yinlari paydo bo‘lgan davrdanoq vujudga kelgan.

Markaziy Osiyo sarhadlarida teatr san’ati tarixi tadqiqotchi Mamajon Rahmonovning arxeologik topilmalar asosida guvohlik berishicha, yigirma ikki asrdan mo‘lroq hisob bilan o‘lchanadi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalarida Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida mavjud bo‘lgan qadimiy shaharlar o‘rganilganda, ularning xarabolarida hayvonlar niqobini kiyib, turli harakatlar qilayotgan odamlarning tasvirlari saqlanib qolganligi aniqlanadi. Ana shu taqlidiy harakatlar ibtidoiy teatr shakllarini anglatadi. Shunday ekan, teatr bor joyda aktyor ham bor. Aktyorlik san’atining ilk shakllari paydo bo‘lganiga ham yigirma ikki asrdan ko‘proq vaqt bo‘lgan.

Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san’ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr – bu ibratxonadur”, deb aytgan fikrini eslash o‘rinlidir⁴.

¹ Muhammedov M. Rejissura asoslari. – Toshkent: Shoakbar bosmaxonasi, 2008. – B. 29-30.

² Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 85.

³ Abdullayeva M. Rejissura. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – B. 163.

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 145.

Ma'lumki, Turkistondagi jadidchilik harakati jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ehtiyoj tufayli yuzaga keldi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Kavkazda paydo bo'ldi va uning asoschisi mashhur ma'rifatparvar Ismoilbek Gaspirali o'g'li edi¹.

Jadidlarning ma'naviy hayotni, xalq ta'limini tubdan isloh qilish g'oyasi ilg'or, nisbatan yangi, zamonaviy dunyoqarash bo'lib, xalqda ozodlik va erkinlik tuyg'ularini uyg'otish asosida jamiyatni taraqqiy ettirish orzusini paydo qiladigan milliy mafkuraga hamohang edi. Bunga ta'limni isloh qilish, maktab, madrasa, gazeta, jurnal, teatr san'atini rivojlantirish orqali yangi hayot tarziga erishish mumkinligini e'tirof qilish va amaliy harakat dasturiga aylantirish jadidlarning asosiy maqsadi bo'lgan.

Bu ma'rifatparvarlarning merosini o'rganishda qimtinib "Jadidlarning estetik qarashlari" deb emas, balki baralla: "Jadidlar estetikasi" deb, uni chuqur, ilmiy asosda o'rganadigan va tadqiq etadigan davr keldi. Chunki, millatimizning faxri bo'lgan bu fidoyi insonlar: birinchidan, milliy ozodlik, erkinlik, ma'naviyat va ma'rifat g'oyalari va mafkuralar uchun jonlarini tikkan edilar; ikkinchidan, tom ma'noda, ziyoli, ijodkor, siyosiy harakat tashkilotchilari, milliy g'oya tashviqotchilari va faol amaliyotchi bo'lganlar; uchinchidan, go'zallik qonunlarini anglagan, unga amal qilgan va shu qonunlar asosida yashab, ijod etgan, ko'plab shogirdlar tayyorlagan edilar. Ularning estetik merosi muayyan tizimga ega bo'lib, "Jadidlar estetikasi" degan yuksak ilmiy-nazariy merosni tashkil qiladi va bu meros jahon madaniyati tarixidan munosib o'rin oldi. Bu merosni hozirgi davr yoshlarining estetik ideallari tarkibiy qismiga aylantirish uchun uni har tomonlama o'rganish hamda xolis baholash zarur².

Chor hukumatining mustamlaka o'lkadagi rasmiy nashri afkori bo'lgan "Turkenstanskiye vedemosti" gazetasi yozishicha, rus arxitektori S.V.Lexanov, uning xotini M.G.Lexanova va N.F.Ulyanovlar birinchi marotaba Toshkentda 1867 yili havaskorlar drama to'garagini tashkil etganlar. Keyinroq, 1876 yili

¹ Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2004. – B. 186.

² Umarov M. Mannon Uyg'ur va milliy teatr estetikasi. – Toshkent: Musiq, 2006. – B. 11.

Samarqandda musiqali drama to‘garagi, 1890 yilda havaskorlik jamiyati tuziladi. Qo‘qon xonligi tugatilishi bilan esa Qo‘qon shahrining o‘zida ham dramatik san‘at havaskorlari to‘garagi tashkil bo‘ladi. Bu to‘garaklar qisqa fursatda rus va Ovrupo dramaturgiyasining mumtoz namunalarini sahnalashtiradi. Jumladan, Toshkent to‘garagi A.N.Ostrovskiy asarlarini, Samarqandlik havaskorlar esa A.N.Ostrovskiy asarlari qatori L.N.Tolstoy pesalarini ham sahnalashtirganlari ma’lum¹.

Turkistonda XX asr boshida, avvalo, maorifda isloh boshlangan, keyin milliy matbuot paydo bo‘lgan. Lekin ma’rifatni, millat ma’naviyatini rivojlantirish uchun yana estetik amaliyotning asosiy elementi – sanoyi nafisa uyi – teatrga ehtiyoj sezildi. XX asr boshlarida Tatariston va Ozarboyjondan O‘rta Osiyoga gastrolga kelgan teatr ijodkorlarining spektakllari tomoshasidan keyin jadidlar g‘oyaviy va amaliy rejasida teatr – Ibratxona tashkil etilishi milliy estetik ong shakllanishida alohida o‘rin egallaydi².

1911 yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush yoxud O‘qumagan bolaning holi” nomli “3 parda 4 manzarali milliy, birinchi fojia”sini yozadi. Asarni chop qilish xususidagi urinishlar ikki yilgacha muvaffaqiyatsiz kechadi³. So‘ngra u pesani bostirishga boshqa yo‘l qidirdi, ya’ni pesaning muqovasiga ruscha qilib “Rossiyaning fransuz istilosidan ozod bo‘lishi va mashhur Borodino jangi xotiralari yubileyiga bag‘ishlayman” deb, senzuraning Tbilisi komitetiga yuboradi⁴. “Matbuot ishlari Tiflis qo‘mitasi senzori ruxsati bilan Kavkaz o‘lkasi sahnalarida qo‘yish mumkin” degan 1913 yil 23 mart 19940-son qaroriga ko‘ra, asar 1913 yil Samarqandda alohida kitob holida chop etiladi⁵.

Avloniyning 1913 yili nashr etilgan “Turkiy guliston yohud ahloq” kitobi, turkiston jadidchilik harakatining rahnomasi, 1898-1900 yillar haj safariga borib, jahonni aylanib ko‘rgan, “Sayohat xotiralari” bilan mashhur Behbudiyning 1911 yilda yozilib 1913 yili nashrdan chiqqan “Padarkush” dramasi, A.Qodiriyning

¹ Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 22.

² Umarov M. Mannon Uyg‘ur va milliy teatr estetikasi. – Toshkent: Musiq, 2006. – B. 19.

³ Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 52-53.

⁴ Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi XVIII asrdan XX asr avvaligacha. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 280.

⁵ Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 52-53.

“Baxtsiz kuyov” pesalari milliy teatr estetikasi shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi¹.

“Padarkush” ilk bor havaskorlar tomonidan 1914 yil 15 yanvar kuni Samarqandning Yangi shahar qismida namoyish etiladi. Shu munosabat bilan “Oyina” majallasining 1914 yil 25 yanvar 14-sonida “Turkistonda birinchi milliy teatr” hamda “Padarkush” ketidan tatar ruppasi qo‘ygan “Oldaduk ham oldanduk” nomli tatarcha spektakl haqida 1 fevral 15-sonida “Samarqandda teatr” nomli davomli axborot-taqrizlar e’lon qilindi. Unda “Padarkush” fojiasining “nihoyatda yaxshi amalg‘a qo‘yilgani” aytilib, teatr-ibratxonaga minglab xalq “hujum” qilgani, 320 o‘rinlik teatr zaliga yana ellikta qo‘shimcha joy qilinib, biletlar baland narxlarda avvaldan sotilgani bayon qilinadi².

... Behbudiy milliy teatrchilik tongidayoq bu san’at turining moddiy va ma’naviy halolligi masalasini ilgari surgan edi. Shuning uchun ham Behbudiy ilk davrdan masalani qat’iy qo‘ydi. “Padarkush” muallifi eng yuksak ma’naviy aqidalaridan kelib chiqib, “ibratxona”da “xilof(i) adab” harakatlarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun kurashdi. G‘arbu Sharq mamlakatlarini kezib, teatrning goh ermak, goh ko‘ngilochar maishiy muassasa sifatida, goho esa buyuk ijtimoiy-ma’naviy tarbiya, tafakkur vositasi ekanini kuzatib, u ana shu ikkinchi yo‘lni tanladi. Millat istiqboli yo‘lida uni eng ta’sirli, ommaviy qurollardan biri, deb tushundi. Safdoshlaridan ham shuni talab qildi. O‘rni kelganda shu aqidasini ba’zi san’at kushandalaridan zukkolik bilan himoya qila oldi³.

Abdulla Avloniy o‘z “Tarjimai holi”da shunday yozadi: “1913 yildan boshlab xalqni ko‘zin ochmoq, madaniyatga yaqinlashtirmoq uchun teatruga kirishib, teatru ishlarini yo‘lga qo‘yuvchilarning boshlug‘u bo‘lub, Turkistonning bir necha shaharlariga borib o‘zbeklar orasida teatruga yo‘l ochdim. ... “Turon” ismli teatralni bag‘otvoritelniy jamiyatni yuzaga chiqardim”. Avloniyning bu so‘zini Miyon Buzruk Solihov ham qayd etgan: “1913 dan boshlab havaskor tusida

¹ Umarov M. Mannon Uyg‘ur va milliy teatr estetikasi. – Toshkent: Musiqa, 2006. – B. 19.

² Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 54.

³ Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 59.

to‘plangan bu to‘da 1914 oxirida rasman “Turon to‘dasi” nomi bilan o‘tiladi va tobora tashkiliy tus ola boradi”¹.

Demak, birinchi o‘zbek milliy teatr truppasi Samarqandda emas, balki Toshkentda 1913 yil o‘rtalarida vujudga kelgan. Lekin samarqandlik teatr havaskorlari birinchi milliy sahna asarini “Turon” teatr truppasidan qirq besh kun avval namoyish etishgan. Vaholanki, “Padarkush” asarining sahnalashtirish ishlari ikkala shaharda ham bir vaqtda boshlanganligi teatrshunoslar tadqiqotlarida isbotlab berilgan.

... “Padarkush” va “To‘y”dan tashqari, N.Xo‘jayev fransuz hayotidan olib yozilgan “Qotili Karima” melodramasini ham sahnalashtirgani ma’lum. ... 1915-1916 yillar davomida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, Hoji Mu‘inning “Mazluma xotun” pesalari truppa repertuaridan joy oladi².

... Truppaning muntazam faoliyati va professional asoslarda ish yuritishini rasman e‘tirof etuvchi muhim bir hujjat ham mavjud. Bu hujjat hozirda Abdulla avloniy memorial muzeyida saqlanuvchi “Toshkent shahridagi musulmon drama san’ati havaskorlarining “Turon” jamiyati Nizomi” bo‘lib, u 1916 yil 11 noyabr kuni va 7176-raqamli reyestr bilan notarius Dm.Yegorov tomonidan tasdiqlangan. 73 banddan iborat bu “Nizom”da jamiyatning asosiy maqsad va manfaatlari to‘la ifodasini topgan:

- a) aholi o‘rtasida sahna hamda xayriya ishlariga jiddiy munosabatni o‘stirish;
- b) xalq uchun spektakllar sahnalashtirish, unga sog‘lom hordiq bag‘ishlash;
- v) Turkiston o‘lkasi hududidagi moddiy va ma’naviy ahvolni yaxshilashga muhtoj musulmon e‘tiqodidagi kishilarga yordam ko‘rsatish.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyat quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

- Kechalar, konkurslar, spektakllar va shunga o‘xshash ommaviy tomoshalar

¹ Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 60.

² Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 67.

tashkil etish. O'z nomiga klub va musiqa kurslari ochish, o'z kutubxonasi va qiroatxonasiga ega bo'lish;

- O'z nomiga boshlang'ich maktablar ochish va ta'minlash hamda muhtojlarga nafaqa berish, shu jumladan, o'quvchilarga va oliy o'quv yurtlarida tahsilni davom ettirishlari uchun stipendiyalar ta'sis etish, shu bilan birga, mavjud xayriya va maorif muassasalarini, ularning rasmiy, xususiy, ijtimoiy qanday tabaqada bo'lishlaridan qat'iy nazar moddiy qo'llab-quvvatlash.

“Turon” jamiyatiga turli din va mazhabdagi kishilar a'zolik badalini muntazam to'lab turib, haqiqiy a'zo bo'lishlari mumkin edi.

Jamiyat faxriy, haqiqiy va Turkiston o'lkasida muhim narsalarni sotib olish huquqiga ega bo'lgan ijrochi a'zolardan tashkil topadi. Ijrochi a'zo sifatida qabul qilinayotgan shaxs 13-bandda aytilishicha, birinchi marotaba o'z iqtidori (amplua) doirasidagi kichikroq rolda sinab ko'rilishi lozim. Agar uning iqtidori sezilsa, shunga yarasha rol berilib, ijrosidan so'ng hay'at qarori bilan jamiyat a'oligiga qabul qilingan. Bu band truppaga shunchaki havaskorni emas, balki muayyan teatr talablariga javob bera oladigan shaxslarni, ya'ni professional xususiyatli shaxslarni jiddiy sinov va tanlash yo'li bilan qabul qilinganini anglatayapti. Bu professional teatrning muhim shartlaridan biridir.

Truppaning muntazamligi va qat'iy ijodiy qoidalarga binoan ishlashini ko'rsatuvchi yana “Ijrochi a'zolarning majburiyatlari” qismida quyidagicha bandlar bor:

18) Ijrochi-a'zolar jamiyat yil davomida uyushtiruvchi ommaviy tomoshalar: konsert, spektakl, kechalar va shunga o'xshash jamiyat hay'ati yoki rais tomonidan taklif etilgan ko'riklarda kami bilan besh marta ishtirok etishi kerak. Ishtirok etmaganlar a'zolarning umumiy yig'ilish qarori bilan ijrochi-a'zolar safidan chiqariladi.

19) Ijrochi-a'zolar, biror spektaklda band bo'lsa, belgilangan barcha repetitsiyalarga kelishi va rejissyorning hamma ko'rsatmalariga amal qilishi majburiydir.

20) E'tiborli sababsiz ikki marta repetitsiyaga kelmagan ijrochilar muayyan spektaklda ishtirok etish huquqidan mahrum etiladilar.

21) Asosiy repetitsiya va o'z ishtiroklaridagi spektaklga, rejissyorni kamida bir kun avval ogohlantirmasdan, ishtirok etmasalar, umuman spektakllardan chetlashtirilishlari mumkin.

“Nizom”ning keyingi bandlarida ijrochi-aktyor, rejissyor, boshqa ijodiy va tashkilotchi a'zolarining vazifalari, huquq va imkon hamda imtiyozlari belgilanganki, bu “Turon” jamiyatining qanchalik jiddiy asoslarda ish olib borganini ko'rsatadi¹.

Tadqiqotchilarning ilmiy xulosalaridan shuni bilish mumkinki, milliy teatr g'oyasi 10-yillarning o'rtalariga kelib, butun Turkiston shaharlaridagi ziyoli yoshlarning fikri-yodini qamrab olganini, millat faqat ma'rifat orqali taraqqiy topishini va unda teatr asosan estetik vosita vazifasini bajarishini, “Padarkush” spektaklining Samarqand va Toshkent teatrlarida muvaffaqiyatli sahnalashtirilganligi va uning samarasi o'laroq tushgan mablag'lardan “usuli jadid” maktablarining qurilishi va maktablarga kerakli o'quv anjomlari keltirilganligi ham teatrning, jumladan aktyorlar asosiy faoliyatining natijasi ma'rifatni targ'ib qilish ekanligidir.

Milliy teatrni shakllantirish, tomoshabin ma'naviyatini boyitish, uni estetik jihatdan tarbiyalash ijtimoiy-siyosiy, tarixiy zaruriyatning namoyon bo'lishidir. Shu bilan birga har bir tarixiy davrning estetik tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) xalq va professional san'at tarixiy an'analarning o'zlashtirilishi hamda milliy dramaturgiyani shakllantirish; 2) spektakllarda hayotiylik, xalqchilik va milliylik hamda tasvirli (obrazli)lik, sahna tilining shakllanishi; 3) mumtoz asarlarning sahnaviy talqiniga va milliy rejissura maktabiga asos solinishi hamda rejissura va aktyorlar ijrosida milliy ifoda vositalarini qo'llash².

... jadidchilikning ijtimoiy-tarixiy tadrijini quyidagicha belgilash mumkin:

1. XIX asr oxirlaridan to 1916 yil o'rtalarigacha.

¹ Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 68-70.

² Umarov M. Mannon Uyg'ur va milliy teatr estetikasi. – Toshkent: Musiqa, 2006. – B. 11.

2. 1916 yil ikkinchi yarmidan to 1929 yilgacha.

Agar buni konkret istilohlar tiliga ko‘chiradigan bo‘lsak, birinchi davrni, avvalo, turli sohalardagi feodal qoloqlikka qarshi kayfiyat yetakchilik qilgan ma‘rifatchilik davri: ikkinchisini esa ontikolonial yo‘nalish boshlab amaliy va keyinroq ma‘muriy tahdidlar tufayli mafkuraviy-ma‘naviy shaklda davom etgan siyosiy kurash davri, deb aytish mumkin¹.

Qariyb o‘ttiz yillar davomida faoliyat yuritgan jadidlar, xalqni ma‘rifatga chorlash borasidagi faoliyatining 20 yoki undan ham ko‘proq davrini teatr san‘ati orqali targ‘ib qildi. Mana shu qisqa bir davrda teatr san‘ati xalqning millat sifatida shakllanishiga, ma‘rifatga intilishi orqali o‘zlikni anglashiga, ma‘naviy qiyofasi o‘zgarib, ijtimoiy ongi o‘yg‘onishiga, estetik didi kamol topib, dunyoqarashi tubdan o‘zgarishiga asos bo‘ldi.

Jadidlar yevropacha teatr san‘atining yangi janrlarini bizning hududimizda tatbiq etar ekanlar, millatni ma‘rifat, ma‘naviyat va san‘at orqali estetik tarbiyalash, bu tarbiya istiqbolida istiqbolga yetishishni ko‘zladilar.

“Yigirmanchi asrga kelib o‘zbek teatr san‘ati yangitdan – yurtimiz va jahon miqyosida shakllangan, davrlar sinovidan o‘tib kelayotgan an‘ana va tajribalar asosida vujudga kelgani va kamol topganini e‘tirof etish zarur. Xususan, poytaxtimiz va viloyat teatrlarida namoyish etilayotgan dunyo sahna san‘atining mumtoz namunalari o‘z vaqtida nafaqat yurtimiz, balki chet el tomoshabinlarini ham hayratda qoldirgani bu fikrni isbotlaydi”². Prezident Islom Karimovning ushbu fikrlarini to‘laqonli asosli bilib, O‘zbek milliy teatr san‘ati bugun o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarilayotgan davrini boshidan kechirayotganligi, bu taraqqiyot bosqichi 1991 yildan – O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishilgan kundan boshlab yuz bera boshlaganligi ta‘kidlagan.

Mustaqillik har bir soha, har bir jabhada yangitdan istiqlol g‘oyalari bilan sug‘orilgan islohatlarini amalga oshira boshladi. Bu islohotlar ichida inson

¹ Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – B. 108.

² Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 144.

kamoloti va uning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi alohida o'rin tutadi. San'at insonlarni go'zalikka chorlovchi, birlashtiruvchi vositadir. San'at shunday bir ijtimoiylikki har qanday davrda ham uning bosh maqsadi inson tarbiyasidir. "Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo'yib, o'zining buyuk kelajagi sari intilayotgan, bu yo'ldagi barcha harakatlarimiz iymon-e'tiqod tuyg'usi bilan yo'g'rilib, kuchayib borayotgan bir paytda, o'z tarixiy ildizlarimizni, shu jumladan, san'atimiz, milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman"¹, deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Shu sababdan ham hozirgi kunda san'at va madaniyatga katta e'tibor berilmoqda.

Bu avvalo teatr san'ati rivojlanishida yoqqol sezila boshlandi, yangi-yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. 1991 yilda Farg'onada va 1993 yilda Xivada davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi, 1994 yilda Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlarini ochildi. Andijonda jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u 1994 yilda Abbos Bakirov nomidagi Andijon yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi². Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan 1995 yil 20 oktabrda "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni Farmoni qabul qilindi.

2001 yil 21 sentabrda "Hamza nomidagi O'zbek Davlat Akademik drama teatriga "Milliy teatr" maqomini berish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Vatanimiz mustaqilligining 11 yilligi arafasida Prezidentimiz Islom Karimov sobiq Hamza nomli O'zbek akademik drama teatri binosini butunlay qayta qurish tashabbusini ilgari surdi va ko'p o'tmay mahobatli teatr koshonasi bunyod etildi. Bino milliy ruh va zamonaviy qiyofada deyarli yangidan qurildi. ... 2001 yilning 30 avgust kuni ana shu san'at koshonasining ochilishi marosimi bo'lib, unda nutq so'zlagan Prezidentimiz teatrning o'tmishiga juda yuksak baho berdi: "Akademik

¹ Karimov I.A. "Milliy teatrimiz - iftixorimiz". Toshkent shahrida Akademik Drama teatri yangi binosining ochilish marosimida so'zlagan nutqi. 2001 yil 30 avgust.

² Jo'rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009-. – B.480.

teatrimiz o'zbek teatr san'atining eng yaxshi an'alarini o'zida mujassamlashtirib, uni yuksak pag'onalarga ko'targan, buyuk san'atkorlarni yetkazib bergan muqaddas dargoh ekanini" ta'kidlab, teatrga "Milliy teatr" maqomi berilganini, bundan buyon u "O'zbek Milliy Akademik drama teatri" deb atalishini e'lon qildi. Bu esa otaxon teatr ijodiy jamoasining beqiyos xizmatlarining e'tirof etilishi, davlatimizning teatr san'atiga ko'rsatayotgan g'amxo'rligining yorqin namoyishi bo'lib san'at namoyandalarining ko'tarinki ilhom va mas'uliyat bilan ijod qilishlariga, milliy istiqlol g'oyalari ruhida barkamol asarlar yaratishga, zamonamiz qahramonlarining yorqin obrazlarini yuksak darajada talqin etishlariga ishonch bildirildi. Bu kelajakda teatr jamoasi zimmasida juda murakkab va nihoyatda mas'uliyatli ijodiy vazifalar turganligidan dalolatdir¹.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda ko'plab teatr festivallari o'tkazila boshladi. Masalan, 1992 yili o'tkazilgan "Navro'z" yirik regional festivalida Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng yaxshi spektakllari namoyish qilindi. 1993 yilda "Teatr: Sharq - G'arb" Xalqaro festivalida Yaponiya, Hindiston, Gankong, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Yugoslaviya singari davlat teatrlari o'z spektakllari bilan qatnashdilar. Har yili mavzusi va janri turlicha teatr san'ati ko'riklari, konkurslar, festivallar o'tkazilmoqda. "Navro'z arafasida" deb nomlanuvchi o'ziga xos teatr san'ati bayrami esa alohida o'ringa ega. Unda mamlakatimizning barcha teatrlari qatnashib, eng yaxshi spektakllar aniqlandi, aktyorlarning eng mahoratlisi, rejissyor va rassomlarning eng yaxshi asarlari taqdirlandi. Qo'g'irchoq teatri festivallari ham muntazam o'tkazilib, ularda boshqa mamlakatlarning teatr jamoalari va mutaxassislari taklif qilinmoqda.

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan tarixiy spektakllar festivali yirik madaniy voqea sifatida ajralib turadi. Shu festival doirasida Qirg'iziston va Qozog'iston teatrlari ishtirokida tarixiy mavzudagi o'n besh spektakl namoyish etildi. Eng yaxshi aktyorlik ishlari ko'rik tanlovi, Toshkent teatrlarining "Bahor chorrahasida" festivali, "Xumo" xalqaro festivali, Andijonda

¹ Rahmonov M., To'laxo'jayeva M., Muxtorov I. O'zbek Milliy Akademik drama teatri tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2003. – B. 6.

Cho'lpon xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan "Andijon bahori" festivali ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Respublika teatrlari o'rtasida o'tkazilgan "37+1", Respublika oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida o'tkazilib kelinayotgan "Nihol" talabalar teatr san'ati festivali ham nafaqat teatr xodimlarini, balki, boshqa sohalarida tahsil olayotgan san'atsevar talabalarni ham o'z bag'riga oldi. Iqtidorli yosh rejissyorlar ijodini keng targ'ib qilish maqsadida o'tkazilib kelinayotgan "Debyut" Respublika ko'rik-festivali ham rejissura olamiga ilk qadamlarini qo'yayotgan rejissyorlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2008 yil Qozog'iston Respublikasining Olma-ota shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari II-Xalqaro teatr san'ati festivalida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama teatri jamoasi dramaturg X. Xursandovning "Kampir topaymi, dadajon" spektakli bilan qatnashib, milliy teatrimiz yutuqlarini muvaffaqiyatli namoyish etdi. Festival yakuniga ko'ra Zulfiya momo obrazini mahorat bilan ijro etgan O'zbekiston xalq artisti Yorqinoy Hotamova "Eng yaxshi ayol roli ijrosi uchun", Sobirjon rolini ijro etgan yosh aktyor Murod Xalilov "Eng yaxshi epizodik rol ijrosi uchun" nominatsiyalarini qo'lga kiritdi.

Misr Arab Respublikasi poytaxti Qohira shahrida 2008 yilning oktyabr oyida o'tkazilgan eksperimental teatrlarning XX – Xalqaro festivalida Mannon Uyg'ur nomidagi Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri "Qaysar cholning qiligi" (X.Xursandov) spektakli bilan ishtirok etdi. Mazkur festivalda dunyoning 50 dan ortiq mamlakat teatr jamoalari qatnashdi. "Metropol" teatr binosida bizning yurtdoshlarimiz mazkur asarni ikki bora ijro etishdi.

O'zbekiston Yoshlari teatri Rossiya Federatsiyasining Saransk shahrida o'tkazilgan "Sootechnestvenniki" nomli III-Xalqaro dramatik teatrlar festivalida hamda Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan "Vstrechi v Rossii" X-Xalqaro teatr san'ati festivalida ishtirok etdi. Shuningdek, Sankt-Peterburg shahrida "Baltiyskiy dom" teatr-festivali bilan hamkorlikda maxsus loyiha asosida tayyorlangan "Nasriddinning birinchi muhabbati" (T.Zulfiqorov) spektaklining premerasi

muvaffaqiyatli bo'lib o'tdi. Shuningdek mazkur teatr tashabbusi bilan 2008 yilning noyabr oyida "Boltiq uyi - Toshkentda" xalqaro teatr festivali o'tkazildi.

Festival va ko'rik-tanlovlarning muntazam o'tkazilishi teatr san'ati ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etib, ijodiy jarayonni rag'batlantirib, teatr hayotiga jo'shqinlik baxsh etadi, eng yaxshi sahna asarlarini aniqlashda yordam beradi.

Bugungi kunda O'zbek teatrining jahon teatrlari bilan aloqalari ham rivojlanmoqda. Faqat keyingi yillarda o'zbek teatr namoyandalari Germaniya, Fransiya, Slavakiya, Hindiston, Aqsh, Belgiya, Misr kabi davlatlarda bo'lgan nufuzli festivallarda qatnashdilar. O'zbek rejissyor va aktyorlarini boshqa mamlakatlarga taklif qilish ham odat tusini oldi. Qozig'iston, Tojikiston, AQShdan kelgan rejissyorlar teatrlarimiz sahnalarida spektakllar sahnalashtirmoqdalar, italiyaliklar va amerikalik san'at ustalari operalarda dirijyorlik qilmoqdalar. O'zbekistonlik rejissyorlar esa Fransiya, AQSH, Isroil, Rossiya teatr sahnalarida spektakllar qo'yishdi.

2011 yil 27 mart "Xalqaro teatr kuni" O'zbek Milliy akademik drama teatrida Toshkent shahrida faoliyat olib boruvchi teatrlar ishtirokida "Sahnada zamon qahramoni" teatr festivali, hamda 2-7 may kunlari Toshkent shahrida Vatanimiz mustaqilligini, milliy qadriyatlarimiz va yurtimizda olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini tarannum etuvchi professional darajasi yuqori bo'lgan zamonaviy spektakllarni yaratish hamda milliy teatr san'atining asosiy vazifasi bo'lmish tomoshabinga estetik zavq berish maqsadida "Seni kuylaymiz, zamondosh!" nomli O'zbekiston teatrlarining Respublika tanlovi o'tkazilmoqda. Mazkur tanlovlarda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan professional teatrlarda sahnalashtirilgan zamonaviy mavzudagi spektakllar namoyish etilmoqda.

Hozirda, Respublikamiza 37 ta Davlat teatrlari faoliyat yuritib, ularda elimiz suygan, aktyorlar va rejissyorlar xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongini ma'naviy-ma'rifiy, estetik jihatdan boyitish, vatanparvarlik tuyg'ularini ulug'lash, spektakllarning tomoshaviyligini oshirish kabi jihatlariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Odatda “aktyor” deganimizda ko‘pchilik rol ijro etuvchi deya tushunadi. Aslida bu juda ham to‘g‘ri emas. Aktyor sahnada ikki ko‘rinishda harakat qiladi: Aktyor – yaratuvchi, aktyor-timsol (obraz).

Aktyor – yaratuvchi, o‘z yurtining fuqarosi sifatida, ijodkor shaxs sifatida, fikrlovchi inson sifatida hayotda ro‘y berayotgan voqealarni kuzatar ekan unga munosabat bildiradi, hamdard bo‘ladi.

Aktyor - timsol sifatida obraz qiyofasida qahramonning munosabatlari bilan yashaydi uning fikri va maqsadi bilan harakat qiladi¹.

Aktyorlik san’atining yana bir o‘ziga xos fazilati u o‘ziga ham ijodkor, ham material. Aytaylik kulol o‘z ijodida tuproqdan, suvdan foydalanadi, tuproq, suv yordamida obrazlar yaratadi. Shuning uchun ham tuproq va suv ijodkor uchun material. Rassom o‘z ijodida turli xil ranglardan foydalanadi, ya’ni ranglar uning uchun material. Aktyorlar xuddi biz aytgan kulol va rassom kabi ijodiy jarayonni ijodkor sifatida o‘z boshidan kechiradilar va uni amaliy ishga oshirish uchun ichki va tashqi holat, badan harakatlarini ishga solib tomoshabin oldida ijrochilik qiladilar.

Aktyorlik san’atining yana bir xususiyati, uni faqat ijrochilik vaqtida ko‘rish mumkin, ijrochilik vaqti tugagach uning sahnaviy ijodi yo‘qoladi, faqat tassurrot qolishi mumkin. Kulolning ko‘zasi, rassomning kartinasi kabi ijodiy izni ko‘ra olmaysiz. Shu sababli ham aktyorlik san’ati vaqtinchalik san’at deb ataladi. Aktyorlik san’atining bu xususiyati esa hamisha teatrga tirik hayot bag‘ishlaydi. Tomoshabinning teatrga maftun bo‘lishi ham shu sababli. O‘ziga yoqib qolgan spektaklni yoki aktyorni bir necha marta ko‘rishga intiltiradi va imkon yaratadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytganda, teatr faqat aktyorlar tufayli tirik va hamisha barhayot yashaydi. Shu sababli ham kelgusi rejissyorlar aktyorlik san’atiga yetarli baho berib qadrlashlari kerak bo‘ladi. Mana shunday professional san’atkor aktyorni o‘qitib tarbiyalash vazifasi ularga ya’ni rejissyorlar zimmasiga yuklanadi. Shu sababli rejissyor teatrda faqat tashkilotchigina, rahbargina emas, balki tarbiyachi hamdir.

1.2. Grim san'ati tarixi va uning badiiy-ifodaviy omillari

Aktyorning o'tirishi, yurishi, turishi, har bir harakati ma'lum bir ma'noga ega bo'lib, muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki aktyor izlab topgan detallar - grim, kostyum, xatti-harakat aktyorning "shu rolga kirib borishi" yoki "shu rolda yashay bilishi" uchun vosita bo'lib qoladi.

Grim ustida ishlash ko'p jihatdan rassom yoki haykaltaroshning ijodini eslatadi. Bunda har ikkisinin vazifalari o'xshash, ya'ni insonning ichki dunyosiga kirib borish, uning xarakter xususiyatlarini sirtdan namoyon qilishdir. Ammo farqi shundaki, grim san'ati tirik odamning, sahna obrazini yaratuvchi aktyorning chehrasida yuzida vujudga keladi. Grimning bosh maqsadi – aktyorga sahnada yaratayotgan obrazning ichki mohiyatini uning tashqi qiyofasini mos ravishda o'zgartirish orqali yordam berishdir.

Har qanday san'atda bo'lganidek, grimda ham minimal vositalar yordamida maksimal ta'sirchanlikka erishmoq zarur. Rol qanchalik murakkab va ma'suliyatli bo'lsa, grim ham shunchalik aniq va ravshan bo'lishi kerak: bir necha chizgi yoki detallar obraz xarakterini mukammal ochib berishi kerak. Bunday zaruriy xususiyatlar faqatgina jiddiy va sermulohaza izlanishlar natijasida, shu bilan birga, pessani o'qishdan boshlab, butun rol ustida ishlash davomida topilishi mumkin.

«**Grim**» - fransuzcha «grime», italyancha «grumo» co'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosiga ko'ra inson yuzida ajin qilish degan ma'noni bildiradi. Grim tomosha san'atida ishtirok etadiganlarning qiyofasini ijro etiladigan obrazga moslab o'zgartirish san'atidir. Grim pesa yoki ssenariyning badiiy xususiyatlari, obrazli yechimi, qahramonlarning fe'l-atvori, aktyor va rejissyorning ijodiy maqsadiga qarab xilma-xil bo'ladi².

Buyuk san'atkorlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, grim qilishning siri o'z qiyofasini tanib bo'lmas darajada o'zgartirishgina emas, balki aktyorga shu ijro

¹ Mahmudov J., Mahmudova X. Rejissura asoslari. T. O'DSI bosmaxonasi. 2008 y.

² Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 252.

etilayotgan obrazni talqin qilishda uni his qilish, tomoshabinga esa o'z oldida shu qahramonni ko'ra olishini ta'minlashdadir.

Grim – dramaturg, rejissyor, aktyor va rassomning badiiy g'oyasini tomoshabinga yetkazib beruvchi asosiy ifoda vositalaridan biridir. Aktyor uchun grim ikki xil ahamiyatga ega. Birinchidan, obrazni ichki dunyosini aktyorning tashqi ko'rinishidagi aks ettirilishi bo'lsa, ikkinchidan, grim aktyorga ijro etilayotgan obrazni xarakterini ochib beradi, rolga badiiylilik bag'ishlaydi¹.

Grim va sahna kostyumi, yaratilayotgan personajning shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarini ochishdagi muhim vosita hisoblanadi. Grim – bu obrazning bir bo'lagidir. Shunday ekan aktyor ijodida grim asosiy vositadir. “Grim ham san'at” – deydi K.S.Stanislavskiy. Zamonaviy rejissyorlar sahnalashtirayotgan spektakllardagi personajlarning yurish-turishi, tasvirlanayotgan voqealar qaysi davrga mansubligi, odamlarining kiyinishi, urf-odatlarini, yoshini, ayniqsa, qanday soqol-mo'ylov qo'ygani-yu, hatto ajinlari, burnining tuzilishi, quloqlari, ko'z qarashlari, soqolli, duduqli, cho'loqmi, bukrimi, xullas hamma-hammasini bilishi kerak. Nafaqat rejissyor, balki aktyorlar ham o'zi yaratayotgan obrazning butun biografiyasini, shuningdek induvid xususiyatlarini ham qunt bilan o'rganmog'i kerak.

Grim tarixi qadimiy xalq marosim, sayil va o'yinlariga borib taqaladi. Xitoy, Hindiston, Yaponiya va boshqa Sharq mamlakatlari, jumladan vatanimizdagi tomosha turlarida qadimdan niqob va grimdan foydalanilgan. Tomosha ko'rsatuvchi yuziga chizilgan rasmlar, qiyofasidagi o'zgarishlar ko'rinish jihatidan niqobga yaqin bo'lib, ba'zan uning o'rnini ham bosgan. Lekin grim niqobga nisbatan xarakterliroq va ifodaviy qudrati kengroq bo'lganligi sababli aktyorlar asosan grimdan foydalanganlar¹.

Yevropada XVIII asrga kelib teatr san'ati o'z rivojlanishining yangi badiiy bosqichiga ko'tarilishi munosabati bilan ko'pgina aktyorlar va rejissyorlar grimga milliy va tarixiy xarakterga mos obraz yaratish vositasi deb qarashdi.

¹ Jalilova F. Grim. – Toshkent: O'DSI bosmaxonasi. 2008. – B. 4.

K.S.Stanislavskiy esa grimni qahramon psixologiyasini ochishga yordam beruvchi eng zarur vosita deb bilgan. Uning fikricha - grim muallif g'oyasini va rejissyor topilmasini amalga oshirishda muhim ifoda vositasi bo'lib, obrazning tarkibiy - yordamchi bo'laklaridan biri hisoblanadi.

Aktyorni grim qilish orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi²:

- Obrazning mohiyati ochilishiga yordam beradi;
- Qahramonning xarakterli xususiyatlarini ifodalaydi;
- Obrazning mukammalligini ta'minlaydi;
- Tomoshabinni voqelikni to'g'ri anglab olishiga yordam beradi³.

Bu jarayonning barchasida grimlarning ifodalilik xarakteri namoyon bo'ladi. Grim qilishning ikkita asosiy usuli mavjud¹:

- 1.Tasviriy grim;
- 2.Bo'rtma haykaltaroshlik;

Tasviriy grim – bo'yoqlar yordamida amalga oshiriladi. Grimlash paytida tasviriy san'atning alohida qoidalarini yodda tutgan holda yuzning ayrim qismlaridan boshlash zarur. Masalan, qoramtir rang botiqlikka moyil, och ranglar esa yaqin va kattalashtirib ko'rsatadi. Pastki qovoqlarga surtilgan och-qizil bo'yoq ko'zlarni horg'in, kasalmand qilib ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, tasviriy grim turli rangdagi bo'yoqlar yordamida ijrochining yuz-ko'ziga "chizish" yoki "bo'yash" orqali amalga oshiriladi. Masalan, qoshlar orasidagi masofani kengaytirish, soqoli olinmagan kishini tasvirlash, qariyalarni tasvirlash, ajinlar, lablarning turli holati (ingichka, do'rdoq, osilgan lab), burunni kengaytirish yoki puchuq burun yasash, semiz yuz tuzilishini yasash kabilar bunga misol bo'la oladi.

Bo'rtma haykaltaroshlik – bunda paxta yoki rezinadan yasalgan "qo'shimcha detal"ni yuzga yopishtirish natijasida yuz tuzilishi o'z tabiiy ko'rinishini o'zgartiradi. Undan tashqari, yasama soch – parik va soqol, mo'ylov

¹ Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 78.

² Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 253.

³ Rustamov V.Q. Sahnaviy ifodaviy vositalar. – Toshkent: TDMI bosmaxonasi, 2008. – B 58.

bilan ishlashda ham alohida qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Sahnada ijro etilayotgan asar qaysi davrga mansubligiga qarab ijrochi uchun soqol, mo'ylov, pariklar tanlanadi. Ular bilan ishlashning ham o'ziga xos usullari bor. Dastlabki ish yasama soch yoki parik tanlashdan boshlanadi. Keyin uni boshga to'g'ri kiyish yo'li o'rganiladi. Mo'ylov, soqol, chakka-soqol, qosh, kipriklar quruq, rang surilmagan teriga yopishtiriladi. Yopishtirilgan mo'ylov harakat paytida tushib ketmasligi uchun ostiga ozgina paxta qo'yiladi. Yopishtiriladigan narsalar yupqa matoga tikilgan bo'ladi yoki maxsus eshilgan tolalardan tayyorlanadi.

Ba'zi bir ijrochilar grim kerak emas, u yuzni ishdan chiqaradi, deb grimsiz rol ijro etadilar. Ayrimlar esa zalda o'tirgan tanishlari tanib qolishdan qochib, grimdan ortiqcha foydalanib, yuzni o'ziga xos niqobga aylantiradilar. Albatta, har ikki holat ham meyor talabiga javob bermaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki grimsiz yuz juda yorug' sahnada rangsiz bo'lib ko'rinadi. Yuz imo-ishorasini tomoshabinga aniq va tushunarli qilib yetkaza olmaydi.

Rejissör va rassom spektaklni umumiy bezatish ishlarini rejalashtirar ekan, grimga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim. Zero, grim spektaklning sahna obrazlarini yaratuvchi boshqa elementlar, ya'ni dekoratsiyalar, kostyumlar, yorug'lik kabilar bilan umumiy bezatish uslubidan chetda qolmasligi kerak. Rejissyorning o'y-fikrlariga qarab har bir pesa o'z janri xususiyatlarini hisobga olgan holda shartli ravishda bezatilishi mumkin.

Grimga, odatda, spektaklning uslubini belgilovchi rejissyorning umumiy rejasi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Rejissyor YE.B.Vaxtangov «Malikai Turandot» spektaklida «Del arte» italyan xalq komediyasi an'alariga tayangan. Spektaklning bezatilishi juda shartli tarzda, ertaknamo ravishda amalga oshirilgan. Mazkur spektaklning asosiy xususiyati – matn, o'yin, kostyumlar orqali «improvizatsiya»dan iborat bo'lgan. Improvizatsiya grimda ham kuzatilgan. Masalan, teatr anjomlari orasidan olingan sochiq donishmandning soqoliga aylantirilgan ekan.

¹ Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 253.

Grim libos bilan ham uzviy bog‘liqdir, chunki libos va grim doimo birgalikda obrazning tashqi xarakteristikasini yaratadi. Ular shakli va rangiga ko‘ra o‘zaro bog‘liq. Libos rangi grim rangiga ta’sir qiladi. Grim qilingan aktör boshqa libos kiysa, yuzining rangi o‘zgarishi mumkin: masalan, qora pidjakda u oq bo‘lib ko‘rinsa, uni yechib, oq ko‘ylagida qolganida esa quyoshda qoraygan bo‘lib ko‘rinadi. Shuning uchun, grim ustida ishlash davrida grimchi-rassom aktyorning liboslari va bosh kiyimlari rangini taxminan bo‘lsa ham bilishi maqsadga muvofiqdir.

Grimning sifati, muvaffaqiyatini ko‘p jihatdan belgilovchi yana bir omil bor. Bu – sahna yorug‘ligi bo‘lib, u grim stolchasidagi oq-sariq elektr lampalarining yorug‘ligidan ancha farq qiladi. YA’ni, birinchidan, sahnadagi yorug‘lik har doim ham aktör yuzini bir xilda yoritmaydi, ikkinchidan, ko‘p hollarda u rangli bo‘ladi. Grim ustida ishlayotgan grimchi ushbu holatlarni hisobga olishi kerak, aks holda, barcha mehnati zoye ketishi mumkin. Chunki, rangli yoritishda grim o‘zining barcha xususiyatlarini sezilarli o‘zgartiradi, masalan, qizil yorug‘lik berilganda libosdagi, yuzdagi va boshqa barcha qizilliklar xiralashadi; xuddi shu detallar ko‘k yorug‘likda qorayib ketadi, ko‘k chiziqlar esa yo‘qoladi. Albatta, har bir sahna ko‘rinishida yorug‘likning qanday bo‘lishini aniq bilgan holda, grimning munosib ranglarini tanlab, bunday buzilishlarning oldini olish mumkin. Biroq sahnada yorug‘lik ko‘pincha oldindan belgilab qo‘yilmaydi, shuning uchun izlanishlar jarayonida grim yorug‘likka moslashib boradi yoki mazkur sahnada nimani o‘zgartirish maqsadga muvofiqligiga qarab, yorug‘likni o‘ziga bo‘ysundirish ham kerak bo‘ladi¹.

Grim ustida ishlash nimadan boshlanadi? Avvalo, grimni tanlash jarayonidan boshlanadi. Buning uchun esa qahramon «qiyofasini izlash», ya’ni u o‘zida nimalarni ifodalashini aniqlab olish kerak. Buning uchun pesani diqqat bilan o‘qib chiqish va personajning qiyofasi yoki xarakter jihatlari haqida konkret yozilgan joylarini belgilab olish kerak. Chunki, insonning xarakteri, millati, yoshi, hatto kasbi va biografiyasi uning qiyofasida o‘z belgilariga ega bo‘ladi. Har

qanday pesa mazmunida bunday ko'rsatmalar mavjud bo'ladi. Ba'zida bu ko'rsatmalar bevosita bo'ladi. Masalan, qahramonlarning bir-birlari qiyofalari haqidagi gaplari yoki muallifning izohi kabilar. Ba'zida esa bu ko'rsatmalar g'oyatda obrazli bo'ladi va asar qahramonining qiyofasi haqida deyarli batafsil ma'lumot berilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida bosh qahramon Ra'no qiyofasini juda yorqin va jonli chizib bergan. "...Ra'noning ismi jismiga, yoxud husniga juda muvofiq tushgan edi – deb yozadi Abdulla Qodiriy, – Men rassom emasman. Agar menda shu san'at bo'lganda edi, so'z bilan biljirab o'tirmas, shu o'rinda Ra'noning rasmini tortib ko'rsata-qo'yar, faqat menga Ra'no gulining suvigina ko'proq kerak bo'lar edi... Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham ko'ndalang yotgan ikki qilich orasini nafis bir quyilib ko'tarilishi ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqidga berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turgan nafis irinlarining yuqorigi qismida sezilarli-sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi cho'zinchoq ham emas, oykulcha ham deb bo'lmas; kishiga kulib qaraganda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'lar, go'yo bizga chin ra'no guli ochilgan holatda ko'rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar orqa-o'ngini tutib yotar, qaddi uzunlik bilan qisqalikning o'rtasi, do'ndiq barmoqlarini jimjilog'ida xina gullari; har holda bu qiz yolg'iz Qo'qondagina emas, umuman Farg'onaning kuylarga qo'shilib, maqtalaturgan go'zallardan edi".

Ba'zida asar qahramonining o'zi ham o'z qiyofasi haqida gapirishlari mumkin. Masalan, F.Shillerning qahramoni Frans Moor o'z qiyofasi haqida shunday deydi: "Meni tabiatdan norozi bo'lishga to'la haqqim bor va vijdonim oldida ont ichamanki, men bu huquqimdan foydalanaman. Nima uchun men ona qornidan birinchi bo'lib tug'ilmadim? Nima uchun tabiat mening ustimga bunday badbasharalik yukini ortdi? Aynan mening ustimga? U xuddi mening tug'ilishim arafasida kasotga uchragandek. Nima uchun aynan menga bu laplandcha burun nasib qildi? Qoratanlilarnikiga o'xshash bu og'izchi? Bu gottentotlarning

¹ Jalilova F. Grim. – Toshkent.: O'DSI bosmaxonasi. 2008. – B. 15.

ko‘zlarichi? Mening o‘ylashimcha, u aslida odam zotlari qiyofalaridagi eng jirkanch yerlarini olganu, ularni qorishtirib, shu zuvaladan meni yasagan. Do‘zax va o‘lim!... Demak, olg‘a! Ishga dadil kirish! Hokimiyat yo‘lida menga g‘ov bo‘layotgan hamma narsani sug‘urib tashlayman. Men hukumdor bo‘laman va qiyofam orqali erisha olmaydigan narsalarga kuch bilan erishaman”. Bu satrlardan ko‘rinib turibdiki, Frans Moor faqat o‘z qiyofasi belgilarinigina emas, balki o‘z xarakter xususiyatlarini ham (darg‘azablik, shafqatsizlik, maslaksizlik, ayyorlik va iroda kuchi) namoyon qiladi. Bu ham grimyorga juda qo‘l keladi, zero ko‘pincha o‘rinli topilgan har bitta detal ham aktyor yaratishi kerak bo‘lgan obrazini to‘g‘ri ochib berishga yo‘naltirilishi mumkin¹.

Ko‘pgina holatlarda grimlashni aktyor yoki ijrochini faqat tashqi jihatdan yorituvchi vosita yoki boshqacha qilib aytganda, ijrochining tashqi qiyofasinigina ochib beradi, deb tushunadilar. Lekin, grim qilish orqali ijrochining faqat tashqi qiyofasi emas, balki uning ichki dunyosini ham aks ettirishga erishmoqlik lozim. Grim qilishdan asosiy maqsad, yaratilayotgan obrazning mukammalligiga erishishdir. Ayniqsa, grim masalalariga aktyorlik faoliyatida jiddiy va alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. “Mening personajim boshqa komiklarning obrazlariga o‘xshamasdi. U nafaqat men, balki amerikaliklar uchun ham notabiiy narsa edi, - deb yozadi mashhur aktyor Charli Chaplin, - lekin men “uning” kostyumini kiyib, pardozini qilib olishim bilanoq, o‘zimni bardam his qilardam. U menga kutilmagan g‘oyalar berardi-ki, bu g‘oyalar faqat men, o‘sha daydi (obraz)ning kiyimi va grimini o‘zimga singdirganimdagina keladi”².

Grim izlashni bevosita yuzdan boshlamasdan, avvalo qog‘ozda grim loyihasini yaratish kerak. Grim loyihasini tayyorlash ishni avval asarni diqqat bilan o‘qib chiqishdan boshlanadi. Asar bilan tanishish mobaynida undagi qahramonlarning tashqi qiyofasi yoki fazilatlarini ko‘z oldiga keltirgan holda grimyor e‘tibor qaratish zarur bo‘lgan vazifalarini belgilab boradi. Shuning uchun grimyor rassom tomonidan topilgan obrazning yozma shakli asosida o‘z

¹ Jalilova F. Grim. – Toshkent: O‘DSI bosmaxonasi. 2008. – B. 18.

² Ismoilov M. Sahna pardozi. – Toshkent: Istiqlol, 2004. – B. 4.

qahramoni grimini loyihasini yaratishga kirishadi. Grimni topish va to'g'ri tanlash uchun rassom va haykaltaroshlarning asarlari va suratlari, ma'lum bir davrdagi hayotning tipik tomonlari, portretlar, fotosuratlar va boshqalar foydalanish uchun katta manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Grim yuz harakatlarining ifodaviyligiga salbiy ta'sir qilmasligi kerak. Chunki aktyor obrazni yaratishda eng avvallo repititsiya jarayonida grimsiz ishlaydi. Obrazning xarakterini yaratishda mimikalar ustida izlanish olib boradi va buni uddalaydi. Vaholanki qahramonning mimikalari ustida ishlanganda aktyor hali grim qilinmagan bo'ladi.

Grim mimikaga halal bermay, aksincha, unga alohida e'tibor ko'rsatilishini talab etadi. Aktyor mimikasi bilan grim o'rtasida ajralmas bog'liqlik bo'lishi lozim. Grim mimikani bo'rttirishi yoki kuchaytirishi kerak.

Aktyor grimdagi qiyofasiga oyna oldida turib topilgan har bir yangi chiziq, belgini sahnaga chiqishdan oldin "tajriba qilib" ko'rishi kerak. Qahramon timsolida birorta shunchaki narsa bo'lmasligi, har bir tafsilot obrazning ichki mantig'idan kelib chiqishi zarur. Hatto u soqol yoki mo'ylov yopishtirgan xolda ham gapirib ko'rishi, og'zini katta ochib yopishi kerak. Bu sahnada bexosdan soqol yoki mo'ylovning tushib ketishi oldini oladi.

Eng oddiy grimlar rassomlik usuli bilan, ya'ni bo'yoqlar bilan bajariladi. Bunda yuzning skulpturasi deyarli o'zgarmaydi, o'zgarish illyuziyasi yorug'lik va soya hisobiga yaratiladi.

Skulptura – hajmli usul gumoz detallarini, paxta yoki rezinani yopishtirish yo'li bilan aktorning tabiiy yuz shaklini o'zgartirish imkonini beradi. Ko'pincha grimda bir yo'la ikkala usuldan foydalaniladi. Grim texnikasini o'rganishni boshlayotib, avvalo, yuzning ayrim joylarini o'zgartirishni o'rganish kerak.

"Har qanday grimda ko'zlarga alohida e'tibor ber" – deydi K.S.Stanislavskiy. Shuning uchun ko'zlar xarakterdan kelib chiqib podvodka bilan o'zgartiriladi, ular yuqori va pastki qaboqlarga qora yoki jigarrang bo'yoqlarda beriladi. Lekin bundan oldin ko'z atrofidagi joylarni grimlash kerak. Ko'z atrofi qanchalik soyalantirilsa, ko'zlar ham shunchalik ichkariga botgan bo'lib ko'rinadi.

Podvodkalar koʻzning ham oʻlchamini, ham qiyiqligini oʻzgartiradi. Podvodka chiziqlari koʻzdan tashqariga qarab kamaytirib boriladi. Yuqorigi qaboqlar pastkilariga nisbatan «ogʻirroq» chiziqlar bilan boʻyaladi.

Koʻzga qosh ham alohida maʼno beradi. Qoshning qayrilishi, chimirilishi xarakter uchun omil hisoblanadi. Qoshning tuzilishini oʻzgartirish uchun, avvalo, ularni butunlay yo qisman maxsus mastika yoki sovun surtib qoʻyib, keyin bu joyni umumiy ton bilan qoplash kerak. Niqoblangan qoshlar ustidan kerakli xarakterdagi qoshlarni oʻrnatish mumkin.

Inson yuz ifodasini bildiruvchi muhim aʼzolardan biri bu burundir. Burunning shakli gumoz yordamida oʻzgartiriladi. YAʼni, barmoqlar yordamida gumoz boʻlakchasini yumshatib, unga taxminan kerakli shakl beriladi. Soʻngra uni burunning quruq terisiga yopishtirib, tugal shakl beriladi. Ushbu amaliyotning eng qiyin joyi faqatgina mastikani ohista yoʻqotish emas, balki shaklni uygʻunlikda yasash va burun tashqaridan qaraganda «yopishgandek» koʻrinmasligiga erishishdir. Burun yasab boʻlinib, umumiy ton bilan qoplangandan soʻng, uning ustiga odam terisining fakturasini berish kerak. Agar burunni kuchli oʻzgartirishga ehtiyoj boʻlmasa va sahnada bir meyorda yorugʻlik boʻlsa, unda faqat rassomlik usuli bilan cheklanish mumkin.

Lablarning ustiga har qanday oʻlchamdagi va xarakterdagi lablarni chizish mumkin. Agar chizilgan lablar oʻzinikidan kichikroq boʻlsa, uning qolgan qismini umumiy ton bilan boʻyab qoʻyish kerak. Lablarni qalin qilib koʻrsatish uchun ularning atrofiga ingichka kontur beriladi, kontur chiziqlari ichkariga qarab boʻyaladi, qavariq joylariga esa yaltiroqlik beriladi. Agarda pastki labni osilgan qilish kerak boʻlsa, uning ostiga soya beriladi. Ogʻizni kattalashtirish kerak boʻlsa, uning ogʻiz teshigi burchaklaridan ikki tomonga qora chiziq bilan davom ettiriladi, shunga mos ravishda lablar ham kengaytiriladi. Bunda odatda, ustki lab toʻqroq rangga boʻyaladi.

Peshonani chakkalariga beriladigan soyalar yordamida toraytirish yoki kengaytirish mumkin. Zarurat boʻlsa, mos parik topilib, peshonani baland yoki past qilish mumkin. Kalla suyagining shakli, odatda parik ostiga qoʻyiladigan paxta

qoplamalar yordamida o'zgartiriladi. Semirtirgichlarni gubka angor movuti, trikotaj va paxta-pape materiallaridan foydalanish orqali yasalishi mumkin.

Undan tashqari grimyor yosh yuzning grimi, keksaning grimi, xarakterli grimlar, portret grimlar, ertak qahramonlari grimlari, tarixiy shaslar grimi, pariklar, soqol-mo'ylovlar ustida ishlayotganda ham yuqorida ta'kidlanganlarga amal qilishi kerak. Grim jarayonida bir qator gigiyena qoidalariga rioya etilishi zarur. Yuzga umumiy ton berishdan oldin avvalo vazelin surtish, so'ngra uni lignin bilan yaxshilab artish kerak. Shunday qilinsa, teridagi mayda teshikchalarga grim tiqilib qolishining oldi olinadi. Shundan keyingina aktyorga parik kiydirish va yuziga ton berish mumkin. Har bir grim qilinayotgan odam o'z yuzidagi do'ngliklar va botiqliklarni paypaslab ko'rishi hamda ularni eslab qolishi kerak. Yuzga umumiy tusni gubka orqali berish qulaydir. Grim tayyor bo'lgach, yuz yaltiramasligi uchun unga pushtiroq tusdagi upa sepiladi. Albatta, upalangandan so'ng grimning rangi bir qadar xiralashadi. Bo'yoqlarni tanlashda bu holatni ham hisobga olish kerak, albatta.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, grimning asosiy vazifasi san'atkor sahnada yaratayotgan obrazni, tashqi va ichki qiyofasini bir-biriga moslashtirishdir. Grim boshqa har qanday san'atda bo'lgani kabi eng kam vositalar yordamida eng ko'p foydali jihatlarga - ifodalilik, jonlilik, ma'nodorlikka erishishga yordam beruvchi san'at turidir. Bu jihatlarga erishish juda ko'p mulohazalar, muttasil izlanishlardan keyin, oxirgi daqiqalarda emas, asarni o'zlashtirish, rol ustida ishlash davomida erishiladi.

Grimlashning yagona uslubi, yagona xususiyati mavjud emas. Grimning uslubi va xususiyatlariga muallifning ijodiy fazilati, asarning uslubi va uning janri ta'sir ko'rsatadi. Grimning ustunligi, albatta, rejissyor va grimchi hamkorligiga bog'liq. Grimlash - rejissyor, aktyor, rassom va grimyor qarashlari bir maqsad uchun xizmat qiladi, ya'ni asarning to'laqonli va mukammal chiqishidir. Bir so'z bilan aytganda, grimlash orqali aktyorning asardagi voqelikka munosabati belgilanib, uning xarakteri, asar mazmun-mohiyati, voqea o'tayotgan joy, davri va boshqa xususiyatlari ifodalanadi.

II BOB. AKTYORLIK IJROSIDA GRIM SAN'ATI ORQALI BADIY- ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNI MODERNIZATSIYALASHNING DIDAKTIK PARAMETRLARI

2.1. Aktyor grimlari ustida ishlashning kontseptual asoslari

Grimning asosiy vazifasi san'atkor sahnada yaratayotgan obrazning tashqi va ichki qiyofasini bir-biriga moslashtirishdir. Grim ustida ishlash ko'p jihatdan portret chizuvchi rassom yoki haykaltaroshning ishini eslatadi. Grimchining maqsadi ham ularga o'xshab insonning ichki dunyosi va fe'l-atvordagi o'ziga xoslikni samimiyat bilan aks ettirishdir. Rassom yoki haykaltarosh bilan grimchining ishi orasidagi farq shundaki, grim tirik inson, san'atkor (aktyor) yuziga ishlanadi, uning sahnada yaratayotgan qiyofasi shakllantiradi.

Xarakterli grim ustida ishlash. K.S.Stanislavskiy «Har bir rol xarakterlidir» deb gapirishni yaxshi ko'rar edi va eng avvalo obrazning eng xarakterli tomonlarini aniqlashni maslahat qilar edi. Shunga qaramasdan xarakterli deb nomlanuvchi bir qator grimlar mavjud. Shular jumlasiga: xarakterni bo'rttirib ko'rsatuvchi, irqiy, milliy, patologik (har xil kasallik, alkogolik, esi past), tarixiy portret grimlar kiradi. Ertak va fantastik grimlar ham bor. Bu grimlar bolalar spektakli, balet spektaklida ba'zi operalarda qo'llaniladi. Shu va patologik grimlar alohida yondoshuvni talab qiladi. Bu grimlar ustida biz alohida to'xtalmaymiz, chunki ular havaskorlik spektaklida juda kam qo'llaniladi. Tarixiy va portret grimlar juda murakkab bo'lib, ko'p bilim va tajriba va maxsus tayorlangan parik va yopishtiriladigan vositalarni talab qiladi. Bular ustida ham to'xtalib o'tirmaymiz.

Biz qiziq xarakterli grimlar ustida so'z yuritamiz. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, agarda biz hasis odam xarakterini olsak, bu xarakter ham bir xil bo'lmaydi. Masalan, Pushkin hasis ritsarning grimlari Gogol asaridagi Plyushkinning grimiga mutlaqo o'xshamaydi. Bunday misollar son-sanoqsizdir. Xasis odamlarning grimini yasashda tarixiy sharoit, millat, ijtimoiy kelib chiqish, urf-odat, moda, prichyoskalarining xarakterini yosh, jismoniy holati va boshqalar juda katta rol o'ynaydi. Aldoqchi, bosqinchi o'g'ri, nashavand kabi yakka ko'rinishli grim bo'lishi mumkin emas. Yana bir aktyorning grim va mimikasi o'rtasidagi

uzviy bog‘lanishni ta’kidlab o‘tish zarurdir. Grim mimikasini kuchytirishga qaratilishi kerak.

Grim bilan xarakterning asosiy xususiyatlari ko‘rsatila turib shuni esda tutish kerakki, odamning tashqi qiyofasi ichki dunyosi bilan hamisha mos kelmaydi. Xarakterning yomonligi hamisha qoshlarning bir-biri bilan tutashib ketishida yoki xo‘mrayib qarashi bilan belgilanmaydi. Shafqatsizlik ba’zida kulgi, soxta mehribonlik, yalqovlik soddalik niqobi ostida ham bo‘laveradi. Pastkash, shafqatsiz, yuraksiz odamlar ba’zida chiroyli, havas qiladigan kishi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Xarakterli grim yasashda burunning shakli va soqol mo‘lab ancha ishni qiyinlashtiradi. Burunning shaklini rassomlik yo‘li bilan o‘zlashtirish haqida biz gapirib o‘tgan edik. Bu yerda biz burunning haykaltarosh usulida yasalishi (gummozli nakleyka) haqida to‘xtalamiz. Burunning shaklini o‘zgartirish uchun gummoz olinib eziladi. Gummoz mayin va yumshoq bo‘lgach, barmoqlar bilan nakleykani kerakli shaklda yasaydi va burunga yopishtiriladi. Tevarak atrofini chiziqlar bitguncha silliqlashadi. Shundan keyin gummozga kerakli shakl beriladi, umumiy ton berilib grimlanadi. Burunning uchini shifon yoki gaz lenta (eni bir, bir yarim santimetrli) bilan tortib shaklini o‘zgartirsa ham bo‘ladi. Buning uchun lentaning uchini burunning uchiga yelimlab, qotib qolguncha ushlab, burunning belini yelimlab, burunning uchini ko‘taradi va lentani burun ustiga yopishtiradi. Yelim qurigandan keyin burunni ehtiyotkorlik bilan umumiy tonga bo‘yaydi.

Soqol, mo‘ylab, qosh, zulf quyidagicha yasaladi: krepdan kerakligicha soch tortib olinadi. Ularni cho‘zib nakleyka shakliga moslashtiriladi va yuzning kerakli joyiga yopishtiriladi. Nakleyka uchun turli xildagi spirtli standart laklar ishlatiladi. Bu lakni qo‘lda ham yasasa bo‘ladi: kanifolni biroz isitilgan spirt yoki atir bilan aralashtiriladi.

Irqiylar va milliy grimlar ham xarakterli grimlar kategoriyasiga kirib, ancha murakkabdir. Biz barcha milliy grimlar ustida to‘xtalib o‘tilmasdan Osiyo va Afrika xalqlari vakillarining grimlarini ko‘rib chiqamiz.

Osiyoliklarning terisi bug‘doy rangda, mo‘g‘illarniki, xitoy va koreyslarga qaraganda to‘qroq bug‘doy rangda bo‘ladi. Yaponlarniki och bug‘doy rangda bo‘ladi. Bu rangni qilish uchun och qoramtir rangni sariq rang bilan aralashtiradi.

Osiyo xalqlarining xarakterli belgilari: keng, dumaloq, bo‘rtib chiqqan yuz suyagi, sal ezilgan burun, chuqur bo‘lmagan ko‘zlar, qiyiq ko‘zlar. Obrazni yaqqol ko‘rsatish uchun yuz suyaklariga qoliplar quyib, ostiga jigar rangdan beriladi.

Yuz suyaklariga gummozdan nakleykalar qilsa grimni yanada aniqroqligi oshadi. Ko‘zlarga bo‘yoq berilmaydi. Ko‘zlarning tashqari tomoniga qora bo‘yoq bilan chiziladi. Bu chiziqlar ko‘zning qiyiqligini yanada oshiradi. Qoshlar o‘rtasini kengaytirish kerak. Buning uchun atir sovunni ozroq ho‘llab qosh o‘rtasini ishqalash kerak. Qoshning tashqi tomonlarini biroz ko‘tarish lozim.

Negrlarning terisi qora bo‘ladi. Sochlari qisqa, qattiq, quyuq va jingalak. Katta puchuqroq burun, dumaloq ko‘z, to‘liq, keng lab, oq qosh, past tomoni sal oldonga chiqqan. Yuz, bo‘yinga asosiy ton berish uchun to‘q jigarrang olinadi. Qo‘lga qora qo‘lqop kiyiladi. Yoki qora bo‘yoq (morilka) suriladi. Ko‘zlar qora chiziq bilan chiziladi. Burunlarning qanotlarini gummozli nakleyka bilan kengaytirish kerak. Agarda burun shakli keng bo‘lsa oqish bo‘yoq bilan bo‘yash kerak. Lablarni katta qilib, chiziqlar bilan aylantiriladi va och kul rang bilan ishlov beriladi.

Shuni esda tutish kerakki, milliy grimlarda hamma narsa tabiiy bo‘lishi kerak. Shunday qilib barcha grimlar muayyan xarakterni ifoda etishi kerak. Agarda biz qiyiq ko‘zni katta ko‘z qilib yasasak, unda grimdan olinadigan ta’surot yomon bo‘ladi. Agarda grim ba mimika o‘rtasida nomytanosiblik bo‘lsa, unda grim o‘ylaganday chiqmaydi. Bir misol: Oybekning «Qutlug‘ qon» asaridagi Shokir ota obrazini olib ko‘ring. Shokir ota nihoyatda qariya, beli bukir, ko‘zoynak taqadi, tirikchiligi kosiblik orqasidan o‘tdi. Bu obrazni yaratgan O‘zbekiston xalq artisti Nabi Rahimov qiyomiga etqazib ijro etgan. Biz ko‘z o‘ngimizda juda qiynalgan qashshoq chol obrazi gavdalanadi. Yoki Odil Yoqubovning «Girdob»dagi Maxamat Chatoq obrazini olib ko‘ring. O‘zbekiston xalq artisti Po‘lat Sayidqosimov bir mo‘labini burasa u kishini qanday odam ekanligini ko‘rish

mumkin. Bu rolni qiyomiga yetkazib ijro etgan Po'lat aka Maxamat chatoqni yorqin bo'yoqlarda o'z xarakterini ochib bergan.

O'lmas Umarbekovning «Qiyomat qarz» asaridagi soda o'z so'zini uddasidan chiqadigan o'zbek otaxonining yorqin obrazini yaratgan O'zbekiston xalq artisti Shukur Burxonovni olib ko'raylik. Unga atab tayorlangan parik, soqol va mo'ylab haqiqiy o'zbek kishisini ko'z oldingizga keltiradi. Kerak bo'lsa yig'laydi, kerak bo'lsa kuladi. Bu obrazni yaratgan Shukur Burxonovni talanti bo'lsa unga atab tayorlangan pardozirovchi musavvirni ham muvoffaqiyat desa bo'ladi.

Bularni yaratishda rejissyor va grimyor hamkorligini ko'rishimiz mumkin. Bizning institutimizni bitirayotgan o'quvchilar ham grim sirlarini qunt bilan o'rganishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Portret grim ustida ishlash. Grim qilish san'atining eng qiyin, murakkab bo'laklaridan biri portret grimidir. Chunki fe'l-atvor va ifodalikka bo'lgan talab tashqi qiyofaning aniq ko'rinishi bilan kifoyalanadi. Bunday holatlarda, masalan, yirik tarixiy shaxslar qiyofasida grimlash zarur bo'lsa, mutaxassis chaqirgan ma'qul. Lekin bu murakkablikdan qo'rqib, havaskorlik jamoalari tashabbuslarini bo'g'ib qo'yish kerak emas. Chunki bunday jamoalarda juda ko'p iqtidorli kishidar ishlaydilar, ular ko'plab urinishlar, izlanishlar tufayli ko'zlagan maqsadlariga yetishlari, tajribalaridagi nuqsonlarni mehnatlaki bilan berkitib ketishlari mumkin.

Tarixiy shaxs ustida ishlayotgan aktyor yuzi sal bo'lsa, ham shu shaxsga o'xshashi kerak. Hech bo'lmasa bosh suyagining shakli, yuz tuzilishi kabilar o'xshash bo'lsin. Shunga asoslanib, yuzdagi boshqa tafsilotlarni o'zgartirish va kerakli obrazga aynan o'xshash grim qilish mumkin.

Soqoli, mo'ylabi, chakka soqoli bo'lmagan odam yuzini o'xshatish ancha murakkab. Bu holda yuzni faqat bo'yoq va yopishtiriladigan narsalar bilan o'zgartirishga urinmasdan yasama yuz yasash yoki unga buyurtma bergan yaxshi.

Portret grim ustida ishlayotganingizda tasvirlanayotgan odamingizning bir necha foto rasmi yoki portreti nusxalari bo'lishi shart. Tasvirlar kamida ikkita – yuz yon tomondan olingan bo'lishi lozim. Lekin portret grim foto rasm yoki

rasmni qayta tiklash degani emas. Bunda yuz tarixiy shaxs yuziga o'xshash bo'libgina qolmasdan sahna talabi bo'yicha ifodali bo'lishi ham zarur. Bunday hollarda ko'plab taniqli odamlarga qilingan o'rtoqlik hazillari - sharjlar katta yordam beradi. Ularda odamning tashqi xarakteri juda o'tkir ko'rinib turadi, bu narsa ishni qaysi yo'nalishda olib borish lozimligiga turtki bo'ladi.

Dunyo klassik repertuarida turli bo'y va millatga oid kishilar ko'p uchraydi. Otello va boshqalarni eslang. Bu grimlar ustida ishlaganda shu obrazlarning turli rakurslarda spektaklga kerak bo'lgan millat qiyofasida tasvirlangan oynoma va ro'znomalardagi rasmlariga ahamiyat berish va ulardan ajralib, ko'zga tashlanib turadigan belgilarni topishga urinish kerak.

Osiyo mamlakatlari vakillari qiyofasida siz birinchi galda sariqqa moyil qoracha – teri rangni, qisq ko'zlarni, aniq bo'rtib turadigan yonoq suyagi, to'g'ri o'sgan qora soch, keksalarda siyrak soqol - mo'ylabni ko'rasiz. Lekin shuni unutmaslik kerakki, yaponlar va janubiy xitoyliklarning yuz tuzilishidan keskin farq qiladi. Birinchi teri rangi oqroq, yuz tuzilishi nozikroq, yani yonoq suyaklari unchalik ko'zga tashlanmaydi, burunlari unchalik yapaloq (puchuk) emas.

Negrlarning terisida qora rangdan tashqari yuz tuzilishidagi chiziqlarning yirikligini ko'rasiz. Ularning ko'zlari katta, burunlari keng, lablari qalin bo'ladi. Negr ko'rinishida foydalanish yaramaydi, Chunki sahnada bu rang tabiiy ko'rinmaydi. Qora va jigarrangni aralashtirib ishlatish kerak. Bo'yin va qo'llari morilka – iflos qilmaydigan suyuq bo'yoq bilan bo'yaladi. Qora, mayda jingalak, kalta yasama sochlar grimni to'ldiradi.

Pesalar uchraydigan hamma millatlar uchun grim namunalarini berish iloji yo'q. Bundan tashqari, etnik tip aniq obraz yaratishda mukammal material bo'lib xizmat qilolmaydi. Arabning grimmi Otelloning grimmi degani emas. Bu obraz xarakterning shaxsiy belgilaridan kelib chiqib yaratiladi.

Portret grim yasash uchun grimyor eng avvalo grim qilinayotgan shaxs qaysi davrda ijod qilgan, yashaganini bilishi va tasviri san'at asarlaridan foydalanib, yoki o'sha shaxsning portreti bo'lsa undan foydalanib grim yasashga kirishadi. Agar

grimyor tarixni va o'sha davr kiyim kechaklar va urf-odatlarini bilishi shart, va shunga qarab portret yasaladi.

Ertak qahramonlarining grimi ustida ishlash. Ertak – pesalar bolalar uchun ham, kattalar uchun ham bunday sevimli bo'lib, teatr sahnalaridan tushmaydi. Ertak qahramonlari grimi ustida ishlash boy fantaziya va quvnoq narsalarni o'ylab topishni talab qiladi. Chunki ertaklarda aniq obrazlar o'ylab topilgan bo'lib, g'ayri oddiy obrazlar bilan qorishib ketadi. Ertaklarda hamma narsa ajoyib, voqeyalarga boy, qaramaqarshilik, solishtirish asosiga qurilgan. Agar tasviriylar san'atdan ertakkar o'xshashini qidirmoqchi bo'lsak, oddiy pesani murakkab tasviriylar rasmiga, ertak pesani esa gullari uncha ko'p bo'lmagan, lekin hammasi ham ajoyib, aniq ravshan, quyush nurida jilolanib turadigan gulli vitraj (gul solingan oyna)ga o'xshatish mumkin.

Bu uslubiy o'ziga xoslik grimda ham spektaklning bezaklarida ham aks etib turishi kerak. Ertaklardagi personajlar grimda Shekspir yoki L. N. Tolstoy asarlari qahramonlaridagiga o'xshash fe'l-atvorlarning qarama-qarshiligi yo'q. Ertak qahramonlarning fe'l-atvorlari jo'n, sodda, ularni o'ziga xos bir-ikkita belgi ajratib turadi, xolos (masalan, Barmoley – qonxo'r, Buratino - sodda va sho'x, Zumrad – mehnatkash, Qimmat – tantiq, dangasa).

Rus xalqi yaratgan yalmog'iz kampir obrazida salgina kinoya, makr – xiyla mujassamlashgan. Paxmaygan soch, iyagiga tegadigan bukri burun, kulgili tarzda likillab turadigan yakan-dukkan tishlar yalmog'iz kampirga xos. Bunday grimni ruslardagi yog'ochdan qilinadigan qo'riqchini ko'z oldingizga keltirib turib yasash juda oson.

Lekin fantastik, to'qima qahramonlar real, hayotda mavjud bo'lgan qahramonlar bilan birga harakat qiladigan bo'lsa ertaklarga grim ishlash murakkablashadi. Ipsek, Gaupman, Ostrovskiy, pesalarida shunday hollar uchraydi. «Makbet»dagi uchta yalmog'izni eslang. Ularning grimini biz tasavvur qilgan yalmog'iz kampir qiyofasida tasvirlab bo'ladimi? Albatta, yo'q.

Ular «Makbet»ning yovuzliklarini tarqatuvchi, qo'rqinchli niyatlarini o'zida mujasamlashtirib, yuzaga chiqaruvchilar. Ular bo'hton, sotqinlik, xoyinlik kabi

dunyodagi borki qaboxatlarning timsoli. Shubxasis, o'rta asrlardagi gadoylar kiyimidagi bu yalmog'izlarning grimi murakkab, asar usuliga singib, g'oyasini ochib beradigan, eng jirkanch qaboxatlarni o'zida aks ettiradigan bo'lishi kerak.

Ertaklarda hayvonlar juda ko'p uchraydi. Ular hatto «odamlarga o'xshab gapiradigan» bo'lishadi. Aktyor yuzini hayvonlar niqobi bilan berkitishga har doim ham imkoniyat bo'lavermaydi. Inson yuzida o'sha hayvon qiyofasini aks ettirilganda esa juda qiziqarli va jonli chiqadi. Bu grim qanday qilinadi? Eng avval, rasmlardan yoki yaxshisi, sahnaga chiqishi kerak bo'lgan o'sha hayvonning o'ziga sinchiklab qarash qanday tasvirlash mumkinligini o'rganiladi. Undagi eng ko'zga tashlanadigan, o'ziga xos belgilarni topib, aktyor yuzini va ertak qahramoni boshidagi birlashtirish mumkin. Bo'lgan chiziqlarni grim qilib chizib ko'ring.

Biz ko'pincha «qo'shburun», «basharasi tulkiga o'xshaydi» degan iboralarni eshitamiz. Bu narsa tashqi o'xshashlikka bo'lmay, inson fe'l-atvorining o'sha hayvonga o'xshashligidan kelib chiqqan holda (masalan, tulkiday ayyor, zag'zg'onday sergap va chaqqon va hokazo). Shuning uchun hayvon qiyofasida grim qilinganda yuzga o'sha hayvon uchun tipik bo'lgan belgilarni (shox, quloq va boshqa) o'xshatib qo'ya qolmasdan, uning timsolidagi umumiy o'ziga xoslikni ham hisobga olish lozim. Masalan, echki qiyofasini grim qilganda aktyorga «soqolu-shox» o'rnatib qo'yaqolmasdan yuzida echkiga xos tuporilik, befarosatlik alomatlarini ham ifodalash kerak.

Mashhur mushuk Bazilo qiyofasida grim qilmoqchisiz deb tasavvur qilamiz. Mushuk quloqli yasama soch toptingiz, dum-dumaloq, ko'k ko'zlar yasadingiz. Dikraygan mo'ylab pishtirdingiz - mushuk tayor bo'ldi. Bu - umumiy mushuk, bizga esa muttaham va qaroqchi mushuk Baziloning ko'rinishi kerak. Demak, grimga muttaham va qaroqchiga xos ko'rinis berish kerak. Zamonaviy fribgarladga o'xshatish farqini qiyshiq ochich, ko'z ostini ko'kartirish, po'latdan tish yasash mumkin. Yana Baziloni qadimiy qaroqchilarga o'xshtib bir ko'zini qora bog'ich bilan bog'lash, yuziga qo'rqinchli chandiq yasash ham mumkin. Bu narsa rejissyorning zakovatiga bog'liq. Ertak qahramonlarining grimini juda qiziq qilib, lekin meyoridan oshirmay tasvirlash mumkin.

Qosh va ko‘z grimi ustida ishlash. Qoshning ko‘rinishini o‘zgartirish uchun qosh avval butunlay yoki qisman mastika bo‘yog‘i yoki sovun bilan bo‘yaladi. So‘ngra bu joy umumiy rang bilan berkitiladi. Niqoblangan qosh ustida qo‘ng‘ir, to‘q qizil bo‘yoqlar bilan kerakli shakldagi qosh yasaladi yoki kreppi bilan yopishtiriladi. (qalin, yo‘g‘on qosh talab qilinsa) qoshni faqat qora rangda bo‘yash tavsiya qilinadi.

Agar avtor bergan remarka asosida har xil millat vakillarining qoshini o‘zgartirish kerak bo‘lib qolsa shunga asoslanib qiyofa yaratuvchi musavvir o‘sha xalqning qoshini yasaydi. Misol uchun xitoy, yapon, koreyes xalqlarini qoshini yasash uchun grimyor ma’lum qoshlarni uctidan berkitib yangi qosh yasaydi. Buni har xil yo‘llar bilan yasash mumkin. Qoshni butunlay berkitib yangi qosh yasash ham mumkin. Yoki qoshni ikki chekkasidan yuqoriga plastic material bilan tortib, keyin uni bilinmaydigan umumiy tus bilan yopib yuborsa ham bo‘ladi.

Ko‘z ustida ishlashda alohida qoidalarga e’tibor berish kerak. Ko‘z ostiga yoki qovoqlarga surtiladigan qora yoki jigarranglar bilan o‘zgartirish lozim. Undan oldin ko‘z atrofi grim qilinadi. Ko‘z atrofi qanchalik qoraytirilgan bo‘lsa, ko‘z shunchalik ichiga botgan, kirtaygan bo‘lib ko‘rinadi.

Agar biz ko‘zi ojiz, bir ko‘zli roldagi aktyorni grimini yasash uchun bir – bir yarim santimetr kenglikdagi yopishqoq tasmani kesib olib, teppa qovoq va pastki qovoqqa qarab tortilib yopishtiriladi va ustidan umumiy ton bilan grimlanadi.

Agar lozim bo‘lsa ikki ko‘zni ham shu yo‘l bilan ishlash mumkin. Agar sizga ko‘zni kattalashtirish, yoki kichiklashtirish uchun ham ko‘zni tepaga yoki pastga yopishqoq tasma yordamida yasash mumkin. Agar sizda shu narsalar bo‘lmasa, grim bo‘yoqlari bilan ham kattalashtirish yoki kichiklashtirish mumkin. Bunda oq va qo‘ng‘ir rangdan foydalanish mumkin. Shularni yasashda nihoyatda gigiyena qoidalariga amal qilib kipriklarni qiynashga va uni to‘kilishiga, e’tibor berish kerak.

Yuzdagi bo‘yoqlar soni, iloji boricha, kamroq bo‘lishi lozim: ular qanchalik kam bo‘lsa, yuz shunchalik jonli va harakatchan bo‘ladi. Grimni mayda, ifodasiz detallar va xususiyatlar bilan ko‘mib yuborish mumkin emas. Yuzdagi har bir

surtilgan malham aniq, ravshan, o'zini oqlashi va ifodali bo'lishi lozim. Bajarilib bo'lgan grimning ustidan upa sepiladi. Bu bilan uning keskin chiziqlari muloyimlashtiriladi va jilosi yo'qotiladi.

Grimlanishni elektr chirog'i bilan yoritilgan xonada bajarish lozim. Chunki kunduzgi yorug'likda grimlanish bo'yoqlarining rangi dag'al va notabiiy bo'lib ko'rinishi mumkin. Yoritish manba'larini shunday joylashtirish kerakki, grimlanayotganning yuzi ikki tomondan ham birdek yoritilgan bo'lsin.

Agar kunduz kuni yoki ochiq joyda rol ijro etishga to'g'ri kelib qolsa, u holda odatda asosiy tus berilmaydi. Ko'z va qoshlar juda yengilgina bo'ladi. Yuz va lablarga salgina bo'yoq surtiladi. Uning ustiga havo issiq bo'lsa, grimni tez-tez upalab turish kerak, chunki issiqdan bo'yoqlar yoyilib ketadi va yuz yarqiray boshlaydi.

Yodingizda bo'lsin, grimga sahna chirog'ining kuchi va uning rangi, shuningdek, sahnadan tomosha zaligacha bo'lgan masofa unga ta'sir ko'rsatmaydi. Tomoshabinlar qanchalik sahnaga yaqin o'tirgan bo'lsalar, uning chiroqqa qanchalik kuchli va yorqin bo'lsa, grim shunchalik mayin va nafis bo'lishi lozim. Rangli chiroqlar yordamida yoritilganda quyidagilarni nazarda tutishi kerak: qizil rang grimdagi qizg'ish rangni yutadi va ular rangsizlanadi (xiralashadi), ko'k rangli yoritilganlikda (kechki oy yorug'ida) qizil bo'yoq, aksincha, deyarli qora bo'lib tuyuladi. Ko'k rang esa, oqarishib ko'rinadi. Shuning uchun birinchi holda qizil tusni kuchaytirish, ko'kini esa susaytirish, ikkinchi holda esa, aksincha, qizil rangni susaytirib, ko'k rangni kuchaytirish lozim. Agar pesa qo'yilishi vaqtida yoritilish tez-tez o'zgarsa, u holda sharoitga qarab, qaysi yoritilganlik ko'proq davom etsa, o'shanga qarab grimlanish lozim.

Artistlar kiyinadigan (yasanadigan) xonada bajariladigan grim, albatta, sahnada - o'ziga muvofiq yoritilganlikda tekshirib ko'riladi.

Ko'zni grimlash biroz qiyinroq. «Odam qandayligini ko'zdan bilsa bo'ladi» degan gap bejiz emas. Kishining jismoniy holatini ham ichki tuyg'ulaini ham ko'zdan bilib olsa bo'ladi. Grim tufayli ko'zning shaklini o'zgartirib uni katta yoki kichik qilsa bo'ladi. Ko'zni bo'yashda uning rangini ham e'tiborga olish shart:

agarda ko‘z havo rang bo‘lsa, to‘q moviy rang bo‘yoq, agarda qora rangda bo‘lsa, to‘q jigarrang yoki noparmon rang ishlatish kerak. Ko‘z atrofi chiziqlari quyidagicha qilinadi: tepa qovoqi jigar – ko‘kish rang bilan ingichka qilib chizilib, qoshlarga qarab asta – sekin bo‘yaladi. Past qovog‘i ham xuddi shunday bo‘yalib, bilinar- bilinmas holda pastga ham ozroq tushuriladi. Tepa past qovoqlarning chiziqlari birlashmasligi kerak. Ko‘zning ichki tomonlariga qizil rangli nuqta qo‘yiladi. Ko‘z oldi chuqurlari ko‘zning tuzilishi shakliga qarab yonoq bo‘yoqlar bilan tekislanadi: ko‘z qancha chuqur bo‘lsa, rangni shuncha och berish kerak.

Yosh ayol yuzini grimlashda ham o‘ziga xos yo‘l tutish kerak. Qalam yoki bo‘yoqni zarralarini isitib, rastushyovka yordamida ko‘z yuqorisidan kipriklarga sekin harakatlar bilan bo‘yaladi. Bo‘yoqlar ketgandan keyin kiprik uzun va qalinroq ko‘rinadi. Qoshni bo‘yash yuzni upalashdan keyin o‘tkazilishi kerak.

Ko‘z grimidan keyin qosh grimiga o‘tiladi. Shakl va rang jihatidan qosh quyuq, keng ajratilgan, bir-biriga ulashgan, qora, och rang qoshlarga bo‘linadi. Masalan: Sharq xalqlarining qoshlari quyuq, qora bo‘lsa, G‘arb xalqlarining qoshlari kam tuk, malla bo‘ladi. Qoshning quyuqligi va shaklning o‘zgartirishda qalam ishlatiladi. Qoshning shakli va joylashishi odam qiyofasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Quyuq, birlashgan qosh yuzni xo‘mraytirib, baland joylashgan qosh yuzni ajablantirib, soddalashtirib ko‘rsatadi. Bularning hammasini grimlash paytida e’tiborga olish kerak.

Qoshlar soch rangidan to‘qroq bo‘lishi kerak. Agarda qoshning shakli o‘ylangan grimga mos tushsa, unda ifodasini kuchaytirish uchun qoshning o‘rtasini biroz qalinroq qilish kerak. Qoshni balandroq, ko‘zni yanada ochiqroq ko‘rsatish uchun qoshni tepasidan ozroq bo‘yab qo‘yadi. Agarda ishtirokchining qoshi shakli talabga javob bermasa, unda maxsus tarkibli suyuqlik (ongruz), yoki atir sovun bilan yuvib tashlanadi. Yuvib tashlangan qoshning o‘rniga boshqa qosh chiziladi. Yoki bo‘lmasa kerakli rangdagi krepdan boshqa qosh yasaladi. Lekin yosh yuz grimini yasashda tabiiy qoshlarni bo‘yab tashlab, sun’iy qosh yasashga o‘ylab yondashish kerak. Yosh yuzni grimlashda lablarga nihoyatda katta e’tibor berish kerak. Labni grimlashdan oldin, labni ingichka to‘q qizil chiziq bilan aylantiriladi,

keyin esa ichkariga bo'yaladi. Yuqori lab hamisha pastki labdan to'qroq va ingichkaroq bo'lishi kerak. Agarda og'izning shaklini o'zgartirish kerak bo'lsa, unda labning pastki qismini umumiy tonga bo'yab, yangi chiziqlar o'tkaziladi. Labning yarqirab turishi grimning umumiy tonning yorug' ligiga bog'liq: quyoshda qoraygan, bug'doy rangli yuzda lab ochroq tonda - yorug'roq bo'yalishi kerak. Labdagi bo'yoqlar ketmasligi uchun uni atir bilan mustahkamlash kerak. Tabiiyki labning shaklini tuzishda obrazning xarakteri e'tiborga olinishi lozim.

Grim chiroq tushganda yaltiramasligi uchun, yuzdagi grim tayor bo'lgandan keyin uni yaxshilab pudra bilan ishlash kerak. Grim yechish uchun oldin yopishtirilgan materiallarni ehtiyotkorlik bilan yechib olish kerak. Gigiyena qoidalariga asosan ish qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Burun va peshona grimi ustida ishlash. Agar avtorning remarkasi bilan siz Buratinoning grimini yasash uchun qo'lingizga bir parcha gummozni olib uni yumshatib burun yasaladi. Uni aktyorning burniga yelim yordamida yopishtirib, qolgan joylari umumiy ton bilan grimlanadi. Ya'ni yorug'lik tushganda yaltiramasligi uchun upa bilan yaxshilab ishlanadi.

Yalmog'iz kampir burnini ham shu yo'l bilan ishlatish mumkin. Grimni tomosha tamom bo'lganidan keyin birinchii navbatda qo'shimcha qilingan grimlar olib tashlanadi. Keyin qolganlari vazelin yordamida olinib, yumshoq leglin yoki paxta bilan artib keyin iliq suv bilan yuvib tashlanadi.

Burun shakli gummoz yordamida o'zgartiriladi. Bir bo'lak gummoz barmoqlar bilan iylab, yumshatiladi. Unga talab qilinganga o'xshash shakl beriladi. So'ngra uni terisi yaxshi quritilgan burun ustiga yopishtirilib, kerakli shakl beriladi. Bu ishni bajarishda eng qiyin narsa burunni tabiiy, kerakli shaklga o'xshatishdir. Avvalo, burunga mastikani bir tekisda surish juda qiyin, qolaversa burunga boshqa tarafdin qaraganda yopishtirilgani aniq ko'zga tashlanib turmasligi kerak. Yasama burun yopishtirilib, umumiy rang berilgach uning ustiga bir parcha doka qo'ib, ehtoyotlik bilan odam terisining rangi beriladi, bo'lmasa u loyga o'xshash rangda ko'zga yaqqol tashlanib turadu. Agar burunga sezilarli o'zgarish berish talab qilinmasa va sahnadagi to'g'ridan yoritishning o'zi yetarli

bo'lsa, tasviriy usul bilan kifoyalanadi. Burunning yon taraflarini qoralab yoki xira rang berib, uni kengaytirish yoki qirra burun shaklini berish mumkin. Bu narsa burun qirrasining qanday kenglikda qoldirishiga bog'liq.

Qansharni xiralashtirib va pastki qismini ochiq rangga bo'yab, burunni puchuq ko'rsatish mumkin. Bunda ochiq rangda bo'yalgan blik (olachalpoq nur, shu'la) beriladi. Burunning asosiga berilgan yengil ko'lanka bilan burun hajmi qisqaradi. Agar burunni sezilarli qisqartirish lozim bo'lsa, u tortiladi. Buning uchun yupqa mato (gaz)dan 1 sm. dan ortiq bo'lmagan kenglikda tasma qirqib olinadi, burun parraklari orasiga yopishtirilib, yelim quruguncha qurutiladi. So'ngra burun yuqoriga tortilib, tasma burun bo'ylab qansharga yopishtiriladi.

Qiyshiq burun – burunning yon tarafiga ko'lankalar tushirish bilan hosil qilinadi. Peshona chakkaga qilinadigan «soya»lar yordamida kengaytirilishi mumkin. Bunda peshonani keng yoki tor ko'rsatish uchun yasama soch ham kiyiladi. Bosh suyagining shakli yasama soch ostiga paxta qo'yib, o'zgartiriladi.

Tasviriy san'atning asosiy qoidalarini bilish, grimlanish texnologiyasini o'zlashtirib olishni tezlashtiradi. Bundan tashqari, rasm solishni bilgan kishi grim eskizlarini (xomqolip surat) o'zi chiza oladi va undan grimlanish paytida foydalanish mumkin.

Lekin grimlanishning asosiy qoidalarini chidam, sabot va matonat bilan o'rganayotgan va har xil xarakterdagi (fe'lli) kishilar grimini yaratishda mashg'ul bo'lgan odam oddiyrog'idan murakkabrog'iga o'ta turib, rol uchun kerakli yelimlab yopishtirish va malham qo'yish ishlarini bajara oladi. Asta sekinlik bilan ijro etiladigan rolning asosiy xususiyatlarini ochib bera oladigan ifodali va hayotiy yaqqol grim yaratish mumkin.

Grimlanishni quyuidagi tartibda amalgam oshirish lozim: agar grim yopishtirilgan burun va boshqa yopishtiriladigan narsalarni talab qilmasa, u holda yuzni vazelin (yog')ning yupqa qatlami bilan qoplab, umumiy tUSDagi bo'yoq surtiladi. So'ng birin-ketin yuzning qizili beriladi, botiqliklar va do'ngliklar chiziladi, ko'z, qosh, lablarga grim surtiladi. Yuzdagi bo'yoqlarning soni, iloji boricha kamroq bo'lishi lozim.

Yosh yuzning grimi ustida ishlash. Yosh yuzga grim quyidagicha qilinadi: yuzga yupqa qilib vazelin surilib, umumiy ton bilan qoplanadi, keyin yonoqlarga ishlov beriladi, koʻz, qosh, lablar boʻyaladi.

Umumiy tonni butun yuzga va boʻyinga teng beriladi (boʻyinni grimsiz qoldirmaslik kerak, aks holda rang jihatdan keskin ajralib turadi, quloq yaqinlari va boʻyinning past tomondagi umumiy ton bilinmas darajada etkazilishi kerak). Teri va sochning rangiga qarab, malla soch uchun och qizil rang tanlanadi. Umumiy ton koʻrsatkich barmoq bilan berish kerak. Oldin har bir joyga boʻyoqni surib, keyin asta-sekin yuz va boʻyinlarga ishqalanadi.

Boʻyoqni yonoqqa, ikki iyak, qosh usti va quloqning pastki qismiga koʻz oldi chuqurlariga, yonoq balandlariga koʻproq boʻyoq surtiladi. Agar aktyorni yuzida har xil husunbuzar, tirtiqlar boʻlsa, uni umumiy ton berilib boʻyaladi. Grim chiroq yorugʻida yaltiramasligi uchun grim ustidan upa bilan mustahkamlanadi.

Qari kishining grimi ustida ishlash. Qari kishi obrazini grimlash ancha murakkab ish. Agarda qari kishining rolini ijro etsa, unda qiyinchiliklar yanada oshadi. Qarilikda kishining yuzi qator fiziologik oʻzgarishlarga duchor boʻladi: suyak releflari, (chuqur – balandliklar) aniqroq koʻrinib qoladi, koʻz rangi ketib, ichiga kirib ketadi. Sochlari oqaradi, tishlar tushadi, lablar ichkariga tortiladi, yuz terilari sariq tusga kirib, ajinlar bosadi. Albatta, barcha qarilar uchun yakka grim boʻlish haqida gap ham boʻlmasligi kerak. Hamma odamlarda qarilik alomatlari bir xil emas. Butun tishli yosh koʻrinishli qarilar ham bor. Yetmish yoshli cholda oq oralagan soch boʻlib, undan yoshrogʻida bitta ham qora soch boʻlmasligi mumkin.

Qari odamning grimini yasashda yosh odamning grimini yasash tartibiga rioya qilinadi. Parik kiydirish, gummozdan turli xil nakliyka qilishlar bundan mustasnodir. Agarda parikni ishlatmiyman desangiz (yomon parik eng yaxshi grimni ham buzadi) tabiiy sochlarga kumush rang yoki oq upa sepsangiz bas. Agarda, parik kiydirish zarur boʻlsa unda grimni parik kiydirishdan boshlash kerak.

Parik boshga yaxshi oʻtirishi juda-juda muhim hisoblanadi. Agarda parik kichik boʻlsa, uni umuman ishlatmaslik lozim. Agarda parik katta boʻlsa, unda uni

orqa yoki yon tomonlarining ichkarisidan tikib qo'yish kerak. Parikning peshona va chakka tomonlari yelimlanadi. Yelim joyi bilinmasligi uchun uning eni bir santimetrlik shifron lenta bilan yelimlanadi va ustiga ton beriladi.

Qari grim yasashda umumiy tonga ozroq sariq – jigarrangli bo'yoq qo'shiladi hamda ijrochining yuzi va bo'yniga suriladi. Qo'llarni suyuq bo'yoq bilan bo'yaydi. Bu tez qurib, issiq suvda sovun bilan yuvilganda tez ketadi.

Har bir grimda ko'zga alohida e'tibor beriladi. Qari grim yasashda ko'krangli bo'yoq bilan bo'yaladi. Bu esa o'z navbatida kiprikni qari kishinikiligini ko'rsatib turadi. Qoshini orqaga yoki pastga tarash bilan ijrochi qari kishining quyuq osilgan qoshini yaratishga erishadi. Yoki qoshni bo'yab tashlab, o'rniga yangi qosh chizadi. Yoki bo'lmasa, krepdan yangi qosh yasaydi. Pastki qovoqni och qizil bo'yoq bilan bo'yasa, ko'zlar kasalmand bo'lib ko'rinadi. Qari grimda ajinlar katta rol o'ynaydi. Ajinlarni uch guruhga bo'lsa bo'ladi:

Birinchi guruhga quyidagi chuqur ajinlar kiradi: burun-lab (burundan og'iz chetiga qaratilgan), peshonadan vertical (qoshlararo) ko'z qovoqlari va ko'zning yuqorisidagi ajinlar.

Ikkinchi guruh ajinlari: peshonadagi gorizontaal og'iz chetlaridan pastga qaratilgan ajinlar.

Uchunchi guruhga «g'oz panjasi» nomli ko'zning tashqi tomonidan joylashgan eng mayda ajinlar. Ajinlarga mo'ljallangan bo'yoq rangi pastliklarga mo'ljallangan bo'yoq rangiga o'xshaydi (qizil va jigarrang bo'yoqlarning qorishmasi). Bo'yoqni umumiy tomonidan sal to'qroq qilish kerak.

Ajinlar mo'yqalam yoki rastushyovka bilan qilinib, keyin barmoq bilan yasaladi. Ajinning markazi to'qroq uchlari ochroq rangda bo'lishi kerak. Ajinning balandagi teri do'nglik hosil qilgani uchun ajinning yuqori qismini umumiy tonning ochroq rangida bo'yash kerak. Bu bo'yoq ajinni bo'rtirib ko'rinishiga katta yordam beradi.

Ajinlarni asta-sekin va eng keraklilarini yasash lozim. Mayda ajinlar tomoshabinga ko'rinmay faqat yuzni ifloslanishiga sabab bo'ladi. Qari grimni buzib ko'rsatadigan eng birinchi sabab joylashgan ajinlardir. Rolni qari kishi

o'ynagan paytida ish oson ko'chadi. Bunda yuzdagi ajinlarni sal bo'rtirib ko'rsatish yetarlidir. Rolni yosh, ajini yo'q kishi o'ynasa, ish ancha murakkablashib ketadi. Hech qachon keraksiz joylarga ajin tushurmaslik lozim. Ajinlarni (ular bor joylarini belgilash) sun'iy ravishda - yuz mushaklarini qimirlatib bilib olsa bo'ladi: yuzni xo'mraytirsam peshonada vertical ajinlar, qoshni ko'tarsam gorizontal ajinlar, ko'zni qissa ingichka nursimon ajinlar paudo bo'ladi.

Ichkariga kirib ketgan og'iz taassurotini tug'dirish uchun jigarrang bo'yoq bilan burun va yuqori lab o'rtasini bo'yash yetarlidir. Agarda bir yoki ikkita tishni qora bo'yoqqa bo'yasa masalan: (ikkita tepadagi va bitta pastdagi tishni) bunday taassurot undan ham oshadi. Buning uchun quyidagi narsalarni qilish kerak: tishni yaxshilab artib quritiladi, oldin qora bo'yoq bilan bo'yaladi, keyin bo'yoq ketmasligi uchun bir tomchi yelim yoki lak bilan bo'yaladi. Tish mutlaqo ko'rinmay qoladi.

Agarda rol ijrochisi uchun soqol, mo'ylab, zulf kerak bo'lsa, unda ularni krepdan yasaydi yoki bo'lmasa tyulga tikilganini yopishtiradi. Shuni aytish kerakki, tayor soqol va mo'ylablar tabiiyroq chiqadi. Soqol iyak tagiga, iyakka, yuzlarga, pastki jag'ning tagiga yopishtiriladi. So'ngra u qaychi bilan to'g'rilab chiqiladi. Yuzda soqol hamma joyda bir xil o'smaganligi tufayli ikki betda yelimlangan soqolning chetlarini qalam bilan soqolni umumiy rangini hisobga olib ozroq rang berish kerak.

Mo'ylabni yopishtirayotganda tirjayish kerak, chunki spektakl vaqtida gapirganida tushib ketmaydi. Kichik mo'ylab va zulflarni yopishtirmasdan chizib qo'yish kerak. Soqoli olinmagan taassurotni tug'dirish uchun betni kulrang bo'yoq bilan bo'yash yoki soqol rangiga mos keladigan mayda qirqilgan krepe bilan yelimlanadi. Bo'yin va iyak pastini och ton bilan bo'yab, ular o'rtasidagi to'qroq ton berib, qari kishining bo'yini yasash mumkin.

Qari grim yasashda burun shaklini gummozdan yasalgan nakleyka bilan o'zgartirishga to'g'ri keladi. Albatta, faqat grimlash vositalari bilan qari kishi obrazini yaratib bo'lmaydi. Qari kishining obrazini jonli, ishonarli chiqishi uchun faqat yuzning grimi yetarli emas, balki buning uchun qariyalarga xos yurishni,

harakat maromini, gapirishini, ovoz jarangini yasash lozim. Eng asosiysi esa qahramonning ichki dunyosini tushunish kerak. Peshonaga tushadigan parikni chakkalarga yopishtiriladi. Bilinib qolmasligi uchun esa, bu joyni bir santimetr bo'lgan yupqa shifon lenta bilan qoplanadi.

Qariyalar grimi berilayotgan umumiy tusga biroz sariq yoki jigarrang bo'yoq qo'shiladi. Hosil bo'lgan tarkibni ijrochining yuzi va bo'yniga surtiladi. Qo'llarga suyuq bo'yoq (tezob) – (yog'ochni bo'yash uchun ishlatiladigan o'tkir suyuqlik) surkaladi. U tez qotadi, iflos qilmaydi va iliq sovunli suv bilan oson yuvilib ketadi. Har qanday grimda ham ko'zlarga alohida e'tibor beriladi. Qariyalarning grimida ko'z chuqurliklari jigarrang bo'yoqlar bilan xiralashtiriladi. Kipriklarning oqarganliklarini tasvirlash uchun kiprik va qoshlarga oq bo'yoq surtiladi. Qoshlarni sochlar tomon yoki biroz pastga qaratib tarab, ijrochi oq, qalin, pastga osilgan qoshga ega bo'ladi. Shuningdek, o'z qoshlarini butunlay bo'yab qo'yib, ularning o'rniga yupqa va g'ijim gazlamadan yasalganini yopishtirib qo'yish ham mumkin. Pastki qovoqlarga surtilgan och qizil bo'yoq ko'zlarini yallig'langan, horg'in qilib ko'rsatadi.

Qariyalar gimida har xil chuqurlikda bo'lgan ajinlar muhim rol o'ynaydi. Ularni uch asosiy guruhlariga bo'lish mumkin: birinchisiga, eng chuqurlariga burun-lablighi (burundan og'iz burchaklari to'g'ri joylashtirilgan ajinlardek hech bir narsa qariyalar grimining ta'sirchanligini buza olmaydi. Qariya rolini o'zining ajini bo'lgan keksa odam ijro etayotganda buni uddalash juda oson: ajinlarni chizib chiqich, ularni ko'zga tashlanadigan qilishning o'zi kifoy. Bu rolni hali ajinlari bo'lmagan yosh ijrochi o'ynayotganda bu ish ancha mushkuldir. Istalgan joyga ajin chizish umuman mumkin emas, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ajinlarni aniqrog'i ularni joylashtiriladigan o'rnini yuz mushaklarining harakati orqali sun'iy aniqlab olish mumkin: yuzni burushtirish bilanoq peshonada tik ajinlar paydo bo'ladi, qoshlar ko'tarilganda - yotiq ajinlar paydo bo'ladi. Faqat bo'lajak ajinlar o'rnini aniqlab bo'lganidan keyingina ularni juda aniq ravshan qilib chizishni boshlash mumkin. Yuzlar ich-ichiga kirib ketganligini burundan to yuqori labgacha bo'lgan joyni jigarrang bo'yoq bilan biroz xiralashtirib tasavvur

qilish mumkin. Agar bir yoki bir necha tishlar masalan (ikki yuqori va bir pastkisi) qoramtir qilinsa, bu tasavvur yanada kuchliroq bo'ladi. U shunday qilinadi: tish quritilib artiladi, dastavval qora bo'yoq bilan qoplanadi, So'ng bo'yoq ishqalanib ketmasligi uchun yelim yoki lak tomchilari bilan qoplanadi. Tish umuman ko'rinmaydigan bo'lib qoladi.

Agar grimdagi keksaning tishlari «tushgan» bo'lsa, bir yoki bir necha tishingizni oldin quruguncha yaxshilab arting. So'ngra qora bo'yoq bilan bo'yang. Bo'yoq ustidan yelim surtib, quruguncha og'zingizni yopmay, kutub turing. Qurumagan yelim ustiga so'lak tegmasin, tegsa bujmayib, oqarib qoladi. Metall tishlar ham shu tariqa yorqin bo'yoqlar bilan berkitiladi.

Ozg'in odam yuz tuzilishining grimi keksa odam yuz tuzilishining grimiga o'xshagan bo'ladi. Bunda yuz suyaklari turtib chiqqan holga keltiriladi, lekin «keksaytirilmaydi».

Semiz yuz tizilishi grimini yaratishda nisbatan umumiy ochiq ranglardan va qizg'ish rangli soya yasovchi bo'yoqlardan foydalanadi, keskin, og'ir ranglar ishlatilmaydi.

Umumiy ranglardan soya tushirishga ishlatiladigan bo'yoqda yuzga asosiy chiziqni tortib, xuddi har bir yuzda do'ppaygan yarim sharlar borligini tasavvur qiling. Yuqori qovoqlarning tashqi chetlarini oqartirib, ichkisini xiralashtirib, ko'zlarni toraytiring.

Lablarni kengaytirish, og'izni kichraytirish lozim. Agar iyagingizni ko'ksingiz (tomog'ingiz) tomon qisib, oynaga qarasangiz, iyak ostida ikkinchi qavat paydo bo'lganini ko'rasiz. Shu tariqa baqbaqalar hosil qilinadi. Umumiy ranglarni, qizillik xarakterini almashtirib, biror kasallikdan ishinqiragan, kerikkan yuz yasash mumkin. Grimni yechishda birinchi navbatda qo'yilgan va yopishtirilgan gummoz, kirpi, soqol va mo'ylablar olib tashlanadi va vazelin bilan qolgan qismlari ham olinadi.

Pariklar, soqol, mo'ylov grimi ustida ishlash. Yasama soch bilan ishlashning sodda usulini ko'rib chiqamiz. Eng oldin yasama soch qanday kiyilishini bilishimiz kerak.

Yasama soch, albatta, oyna oldida o'tirib kiyiladi. Yoningizdagi o'rtog'ingiz yasama sochning ensa (orqa) tomonidagi ikki burchagidan ushlab turadi. Siz yasama sochning oldingi burchagidan shu tariqa ushlaysiz, oynaga qarab, yasama sochni kiyasiz. Bunda uning biror joyi bukilib qolmasligiga e'tibor bering. Tanlangan yasama sochingiz kattaroq bo'lsa, orqa tomoniga montyura (sochlar burilib tikiladigan mato) tikiladi va sal burib tikib, boshga moslashtiriladi.

Yasama soch uch xil usulda mustahkamlanadi: erkaklarning yasama sochi yupqa matodan qilingan yelimlagich bilan oq surfga peshona orqali yopishtiriladi. Ayollarning yasama sochi qisqich (shpilka) yordamida ularning sochlariga tug'nab qo'yiladi. Ayollar yasama sochlarni o'z sochlari ostidan o'tkazib, bog'lab olsalar ham juda qulay bo'ladi. Bunda ular o'z sochlarini yuqoriga tarab oladilar.

Erkaklar yasama sochlari chetlarini peshonalariga yopishtirgach terilarini chakkalariga qaratib artsa, yengilgina sipalab, taranglatishlari kerak, aks holda matoda ajinlar paydo bo'lib qoladi. Yasama sochni peshonangizdan boshlab kiyib, uning peshona qismi qirg'og'I peshonangizning do'ng joyiga to'g'ri kelishiga ahamiyat bering. Peshonangiz bilan yasama soch qirg'og'ini yupqa mato tasmasi bilan yelimlang.

Mo'ylab, soqol, chakka coqol, qosh, kipriklar quruq, rang surilmagan teriga yopishtiriladi. Yopishtirilgan mo'ylb harakati paytida tushib ketmasligi uchun ostiga ozgina paxta qo'yiladi. Yopishtiriladigan narsalar yupqa matoga tikilgan bo'lishi shart emas. Ko'pincha ular maxsus eshilgan toalardan tayyotlanib, bevosita yuzga yopishtirilaveradi. Soqol yopishtirish usuli ham bir necha xil: iyak ostiga pastki qism, yuzlarga yonbosh qismlar, oxirida iyak ustiga yuqori qism yopishtiriladi. Shundan keyin soqolga qaychida har qanday shakl berish mumkin. Hayotda bir xil rangdagi soqollar kamdan-kam uchraydi. Krepe tanlashda shuni hisobga olish kerak. Biror ashyo (soqol, qosh va boshqa) tanlashda bir tutam (tola) sochning o'rtasidan kaftlar orasida eshiladi, qisqichlar bilan kerakli shakl beriladi. Uni yuzga yopishtirilayotganda bir necha marta buklangan doka bilan mahkam bosib, chetlaridagi ortiqcha yelimlar shimdirib olinadi.

Yuzga yopishtiriladigan narsa tabiiy ko‘rinishda bo‘lishi, sohtaligi sezilib turmasligi kerak. Shuning uchun soqol, chakka soqol chetlari yuzga qarab, go‘yo tabiiydek qilib taraladi, yelimlanadi. Grim olib tashlaganda grimning qurib qolgan qoldiqlari, yuzdan odikalon bilan artib tashlanadi.

Agar rolning talabiga ko‘ra yuzda tuklar (mo‘ylab, soqol, chakkacoqol) lozim bo‘lsa, u holda ularni yupqa g‘ijim gazlamadan tayorlanadi yoki maxsus ustaxonalarda nafis tyul to‘qimalariga tikib tayorlanganlari yopishtirilib qo‘yiladi. Tayor mo‘ylab va soqollar tabiiyroq ko‘rinadi. Kashta soqolning bo‘laklari quyidagi tartibda yopishtiriladi: engak ostiga, engak ustiga, lunjiga va pastki jag‘i ostiga, so‘ng ularni qaychi bilan qirqiladi va kerakli shakl beriladi. Yuzlardagi soqol – mo‘ylab notekis joylashgani uchun va yonoqlarda biroz siyrakroq bo‘lgani uchun sochlarning umumiy rangi inobatga olingan holda, yopishtirilgan soqollarning uchlarini yonoqlarda nafis cho‘tkachalar yordamida tarab qo‘yish tavsiya etiladi.

Soqollarni yopishtirish paytida yuzlarni tabassum bilan cho‘zish lozim, shunda sahnada spektakl davom etayotganda va so‘zlashayotgan paytda ular ko‘chib ketmaydi. Kichik soqol va chakka soqollarni yaxshisi yopishtirmay, ularni nafis cho‘tkachalar yordamida tasvirlab qo‘ya qolgan ma‘qul. Soqoli olinmagan yuzni tasvirlash uchun rangi sochning rangiga o‘xshash bo‘yoq bilan ijrochining yonoqlari va engagi kulrang bo‘yoq bilan bo‘yaladi yoki unga kalta qirqilgan nafis kirpi yopishtiriladi. Qariyalarning ozg‘in bo‘yinlarini yaratish uchun ularning bo‘yin va kekirdaklari och rang tus bilan ajratiladi, ularning orasi esa jigarrang bo‘yoq bilan xiralashtiriladi.

Qariyalar grimini yaratishda ba‘zan burun shaklini grim uchuin ishlatiladigan yopishqoq plastilin (gummoza) yordamida o‘zgartiriladi (bu to‘g‘rida «O‘ziga xos grimlar» bobiga qarang).

O‘z-o‘zidan ma‘lumki, faqat grimlash vositasi bilan qariya obrazini yaratish qiyin. Keksa odamning obrazi jonli va haqqoniy bo‘lishi uchun nafaqat yuzini tegishlicha grimlash lozim, balki uning yurish-turishini, harakati makonini, nutq so‘zlash usuli, ovoz ohangini (tembr) ifodalash va asosiysi, qahramonning

ruhiy holati va ichki dunyosiga chuqur kira olish lozim. Qariyalik ajinlarda emas, balki ko‘zlardadir. Grimyor juda ehtiyotkorlik bilan parik va soqollarni yopishtirib ulangan joylarini bildirmaydigan qilib, qaysi millat vakiliga tegishli bo‘lsa umumiy ton bilan soqol va parik chetlarini bilinmaydigan qilib grimlash kerak. Birinchi navbatda parik, soqol, mo‘ylab va gummoz ishlatilgan bo‘lsa, shular yechib olinadi. Keyin vazelin bilan qolgan qismlari olinib, iliq suv bilan yuvilib, lasyon atiri bilan artiladi. Buni har bir o‘quvchi va grimyor bilishi kerak.

O‘ziga xos grim va soch turmaklari ustida ishlash. Bir-birimiz bilan tanishayotganimizda, ko‘cha-kuyda, metro yoki biror joyda begona odamlarning yuz – ko‘ziga razm solib, bu odamning kimligini, fe‘l - atvori qandayligini, yoshi, millati qanaqaligini, nima ish qilishini, hatto tarjimai holi qandayligini o‘zimizcha tasavvur qilishga urinamiz...

Badiiy asar o‘qiyotganimizda «Ichkilikbozning burni», «irodali odamning iyagi» kabi iboralarga duch kelamiz. Bu iboralarning hammasi ham o‘ziga xos vazifa bajaradi – odamning fe‘l – atvorini tashqi tomonidan ma’lum darajada aniq ifodalaydi. Odamning yuzidagi ma’lum chiziq uning biror-bir xususiyatini ko‘rsatadi, lekin qoida bo‘yicha yuz ifodasi aks etib, ustun turuvchi bir-ikki chiziq g‘amgin, oqko‘ngik, ayor, badjahil, beor kabi fe‘l-atvorni bildirib turadi. Grim qilinganda bu belgilar hayotdagidan ham yaqqolroq aks etib turishi kerak.

Bu grimlarda birorta ortiqcha chiziq, tasodifiy tavsilotlar yo‘q. Ular go‘yo shunday bo‘lishlari lozimdek, boshqacha tasavvur etib bo‘lmaydi ham. Lekin shu rol ustida ishlayotgan boshqa aktyorlar bu grimni qaytarsalar, ayanchli taqliddan boshqa narsa chiqmaydi. Dramatik materialni aks ettirishda har bir aktyor o‘z yo‘li va vositasini topishga intilishi kerak.

Ayrim toifa grimlar borki, ularni o‘ziga xos grimlar deb yuritiladi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: o‘ziga xos yorqin qirrali grimlar, irqiy va milliy, patologik (har xil kasalliklarga, aroqxo‘rlarga, telbalarga xos), tarixiy va aynan o‘zginasi (portretli). Yana ertaklardagi afsonaviy va o‘tkir xayolparast (fontastik)lari borki, ular ba‘zan bolalar spektakllarida, balet va ba‘zi bir opera spektakllarida uchraydi. Tarixiy sharoit, millat, ijtimoiy qiyofa, urf-odat, rasm-

rusm (moda), soch tarash xususiyati, soqol-mo‘ylab, yosh jismoniy ahvoli va boshqalar hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bularning hammasi shu turdagi va boshqa toifadagi grimlarga to‘laligicha aloqadordir. Fribgar yoki ablax, yovuz yoki aroqxo‘r, xiylagar yoki tentak odam uchun har bir xil grim bo‘lishi mumkin.

Epizodik obrazlar rolida o‘ynaganda, grim topish o‘ziga xos murakkab va qiyin bo‘ladi. Chunki bu personajlar sahnada juda qisqa muddat, aksariyat so‘zsiz holatda bo‘ladilar. Bu muddatda aktyor o‘z qahramoni haqida ko‘p narsa bildira olishi qiyin. Shuning uchun bunday hollarda obraz faqat tashqi ko‘rinishi - kiyimi harakati va asosan, grim bilan xarakterlanadi.

Yani shuni bir marotaba ta’kidlash zarurki, aktyor mimikasi bilan grimi o‘rtasida ajralmas, jonli bog‘liqlik mavjud. Grim mimikani bo‘rtirishi va kuchaytirishi lozim.

Grim orqali xarakterning yetakchi xususiyatlarini ta’kidlab o‘tish bilan birga, odamning tashqi qiyofasi uning ichki xususiyatlariga mos kelmasligini ham yoddan chiqarish kerak emas. Xarakterning g‘arazlilik har doim ham tutashib o‘sgan qoshlar va xo‘mrayish bilan ifodalanavermaydi. Rahmsizlik ko‘pincha tabassum va tashqi muloyimlik zahirida, makkorlik – tashqi soddadillik va samimiyat zahirida yashiringan bo‘ladi. Ablaxlar, shavqatsizlar va toshbag‘ir, xudbinlar ba’zan chiroyli tashqi ko‘rinish va chiroyli qiliqlarga ega bo‘ladilar, va aksincha, tashqi qattiqlik, odam yoqmaslik, xo‘mrayganlik, ko‘pincha o‘zida katta mehribonlik va samimiylilikni aks ettiradi.

O‘ziga xos grimlar yaratishda burun shaklini o‘zgartirish hamda soqol - mo‘labni yopishtirish katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Burun shaklini tasviriy usullar yordamida o‘zgartirish to‘g‘isida yuqorida so‘z yuritilgan edi. («Yoshlarning yuzini grimlash» bo‘limiga qaralsin). Endi biz ko‘proq samarali - hajmiy - haykaltaroshlik grim usuli (grim uchun ishlatiladigan yopishqoq plastilin yordamida tarangroq tortib qo‘yish) to‘g‘risida so‘zlab beramiz. Malham qo‘yib burun shaklini o‘zgartirish uchun kerakli kattalikda shira (gummoz) olinadi va uni qorishtirib pishirtiriladi. U yumshoq va muloyim bo‘lgandan so‘ng barmoqlar bilan yopishtiriladigan narsa shaklida yasaladi, uni burunga yopishtiriladi va burun bilan

yopishtirilgan plastirning chegarasi yo‘q bo‘lib ketmaguncha barmoqlar bilan silliqiladi. Shundan so‘ng shira (gummozga) so‘ngi shakl beriladi, umumiy tus bilan qoplanadi va o‘z burnidek grimlanadi. Burunning shakli, shuningdek, uning uchinchi nafis shifon yoki yupqa shaffof ipak matodan qilingan lentacha (eni bir-bir yarim santimetr bilan) tortib qo‘yish orqali o‘zgartiriladi. Buning uchun lentachaning uchini burunning uchiga yopishtiriladi va yelim qurigungunga qadar ushlab turiladi. So‘hg burunning orqa tomoniga yelim suriladi, barmoq bilan burunning uchi ko‘tariladi va burunning orqa tomoni bo‘ylab lentachalar qo‘yiladi. Yelim qurishi bilanoq, burunni juda ehtiyotlik bilan, lentachani ko‘chirib yubormaslik uchun, kam miqdorda umumiy tus bilan qoplanadi. Yelimlab yopishtiriladigan tuklar (soqol, mo‘ylab, chakka soqol, qoshlar) nafis kirpidan quyodagicha yasaladi: ip yoki ipak bog‘ichdan (shnur) kerakligicha chiyratma ipi sug‘irilib olinadi. Ular uzinasiga tortiladi va u yoki bu shakl bo‘yicha to‘g‘irlanadi, so‘ng yuzning qayerida bo‘lishiga qarab shu joyiga yopishtiriladi.. Yopishtirib yasaladigan har xil narsalar yasash uchun esa teatr do‘konlaridan sotib olinadigan standart bo‘yicha tayorlangan spirtli lak qo‘llaniladi. Bunday lakni o‘zingiz osongina tayorlashingiz mumkin: buning uchun kanifol olinadi va sal qizdirilgan spirt yoki atir bilan qorishtirib iylanadi.

Irqiyl va miliyl grimlar ham o‘ziga xos grimlar qatoriga kiradi va ma‘lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Biz millaiyl grimlarning barcha turlari ustida to‘xtalib o‘tirmaymiz, chunki ular nihoyatda ko‘p, balki Osiyo va Afrika xalqlarining badiiyl havaskorlik spektakllarida ko‘p uchraydigan grimlar ustida to‘xtalib o‘tamiz.

Osiyoda yashovchi odamlar terisining rangi sarg‘ish, mo‘g‘ullarda u xitoy, koreyslarga nisbatan qoracharoq. Eng ochroq ranglik teri - yaponlarniki. Bunday grimlar uchun to‘g‘ri keladigan asosiy tus oftobdan qoraygan badan tusi bilan sariq bo‘yoqni biroz aralashtirganidan paydo bo‘ladi, bu bo‘yoqlar har qanday grimlanisg bo‘yoq qutisida mavjud bo‘ladi.

Osiyo xalqlari yuzlarining o‘ziga xos xususiyatlari: keng yuzlik, dumaloq, turtib chiqqan yonoq suyagi, biroz yassi burun, chuqur bo‘lmagan ko‘z botiqligi, siqiq ko‘z qiyaligi. Ko‘proq bo‘rtib chiqqanlikni tasvirlash uchun yonoqlarga dog‘

tushiriladi, pastiga esa, jigarrang soya beriladi. Yonoqlarga shira (gummoz)dan yopishtiriladigan narsalar qilish mumkin, bu yonoqlarning boʻrtib chiqqanligini yanada oshiradi. Koʻzlarga surma qoʻyilmaydi, lekin ularning ichki va tashqi burchaklariga qora boʻyoq bilan kichik chiziqlar chiziladi, ular koʻzlarga ikki yoqqa qaraganlik (gʻilaylik) alomatini beradi. Qoshlar orasidagi masofani kengaytirish lozim, buning uchun qoshlar atrofiga atir sovun chaplab qoʻyiladi (biroz namlanadi va tuki boʻylab surtiladi), tashqi burchaklari esa biroz koʻtariladi. Qoshning chaplab yopishtirilgan qismi umumiy ton bilan boʻyaladi. Xabashlarning (negr) terisining rangi bugʻdoyrang, deyarli qora rang boʻladi. Sochlari kalta, odatda dagʻal, juda dagʻal, juda qalin va mayday jingalak boʻladi. Keng yapasqi burun, koʻz qiyigʻi dumaloq, semiz, keng lablar, juda oq tishlar, yuzning pastki qismi biroz oldinga surilgan. Asosiy tus uchun ijrochining yuzi va boʻyniga yupqa qilib tuk jigarrang boʻyoq surtiladi (mulatlar uchun och jigarrang). Qoʻllariga qora qoʻlqop kiydiriladi yoki ularni suyuq qora boʻyoq (morilka) bilan boʻyaladi koʻzlarini yopishqoq shiralar (gummoz) yordamida kattalashtirish va kengaytirish lozim, agar ijrochining burun shakli keng boʻlsa, unga yorqin rangli dogʻ qoʻyiladi. Lablar kattalashtirilib atrofiga jiyak qilinadi va och kulrang boʻyoq bilan boʻyaladi, lekin qizil boʻyoq ishlatish yaramaydi.

Faqat shuni yodda tutish lozimki, milliy grimlarda hamma narsa realistic boʻlishi lozim. Oʻziga xos milliy xususiyatlarni boʻrtirib va oshirib hamda har qanday gʻalati qiyofa va hajviy tarzda grim yaratishga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi.

Shunday qilib, barcha grimlar maʼlum xarakterni ifodalashlari lozim. Aktyor yaxshi grimni tanlay bilishi, uni kiyib yura olishi kerak. Unga oʻzining ohangi va mimikasini shunday moslashi kerakki, hech bir kichik anglashilmovchilik yuz bermasin, tomoshabin uzun bu grimning biror oʻziga xos mukammalligi nazardan tushib qolmasin.

Agar biz qisq koʻzlarni katta ochilgan qilib tasvirlasak, u holda grimning taʼsiri yoʻqoladi. Grim va mimika oʻrtasida yaqqol tafovut paydo boʻladi va koʻzlangan maqsadga erishilmaydi.

2.2. Grim ustida ishlashning ma'naviy-estetik va tashkiliy ahamiyati

Hayotiy to'g'ri va ifodali obraz yaratishda, uni tomoshabinga yetkazishda to'g'ri tanlangan grimning ahamiyati juda kattadir. Grim eng avvalo, mazkur personajga taalluqli bo'lgan xarakterning xususiyatlarini, obrazning ichki dunyosini ta'kidlab o'tishga yordam beradi. Grim yordamida biz qiyofani qariroq yoki yoshroq, to'laroq yoki ozg'inroq, sog'lom yoki kasalmand qilib ko'rsatishimiz, shuningdek, obrazning milliy belgilarini ochib bera olishimiz mumkin. Va nihoyat, ma'lum darajada qiyofaning kamchiliklarini yo'qotishimiz, uni (agar rol talabiga ko'ra lozim bo'lsa) chiroyliroq, ko'rkamroq qilishimiz mumkin.

Afsuski, teatr jamoalarining ko'p ishtirokchilari grim ahamiyatini tushunmay, uni o'rganishdan bosh tortadilar. Ba'zi bir ijrochilar grim kerak emas, u yuzni ishdan chiqaradi deb, grimsiz rol ijro etadilar. Boshqalar esa zalda o'tirgan tanishlar tanimasin deb grimdan o'ta ortiqcha foydalanib, yuzni o'ziga xos niqobga aylantiradi. Albatta, har ikki holat ham meyor talabiga javob bermaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, grimsiz yuz juda yorug' sahnada rangsiz bo'lib ko'rinadi. Yuz imo-ishorasini tomoshabinga aniq va tushunarli qilib yetkaza olmaydi. Grim yuzni buzadi degan gaplar mutlaqo asossizdir. Gigiyena qoidalariga rioya qilinsa, grimlashtirish uskunalaridan to'g'ri foydalanilsa umuman zararsiz. Bo'yoqlardan meyardan ortiqcha foydalanish rolga hech qanday yutuq bag'ishlamaydi. Yuz jonsiz, noaniq bo'lib qoladi.

Grim anjomlari va grim gigiyenasi. Grimchi ish jarayonida juda ko'p harakatda bo'ladi, u ham aqliy, ham jismoniy faoliyat bajaradi. Grimchiga qulay bo'lishi uchun unga albatta shart-sharoit yaratilishi, yetarli darajada ashyolar yetkazib berilishi zarur.

Grim uchun ish joyini jihozlash unchalik qiyin emas: stolcha va oyna. Grim ishlarini faqat elektr yorug'ligida, lampochkani oyna yuqorisiga o'rnatgan holda bajarish kerak. Yana ham yaxshirog'i, bir xil yorug'likdagi ikkita lampochkani ikki tomonga qo'yishdir. Agar lampochkalar xira shishali bo'lsa juda yaxshi.

Grim texnikasini mustahkam o‘zlashtirishga qaror qilingach, quyidagi eng kerakli asboblarni va materiallarga ega bo‘lish kerak.

Grim bo‘yoqlari. Korxonalarda chiqadigan quticha – to‘plamlarda ishga kerakli barcha rangdagi bo‘yoqlar bo‘ladi. Shu jumladan, bir nechta umumiy ranglar, ya’ni yuzning rangini o‘zgartiruvchi tananing turli tusidagi bo‘yoqlar ham mavjud. Hammasi bo‘lib sotuvda umumiy tusning 12 ta raqamli xillari bor: 1, 2, 3 va h.k. Ularning rangi och badan rangidan tortib jigarranggacha bo‘ladi.

Yupqa kichik cho‘tkalar, dumaloq va yassi – 2, 4, 6-sonli. Ular yordamida ko‘zga chizgilar, ajinlar chiziladi va h.k.

Lak – mo‘ylovlar, soqollar, kipriklar va shu kabilarni yopishtirish uchun.

Mastika (gumoz) – burun yasash uchun.

Sartaroshlik qaychisi, metal taroq.

Qisqichlar – soch turmaklash uchun, qisqichlarni ishlatish uchun elektr plitkasi.

Krepe – chilvirda maxsus o‘ralgan soch-nakleykalarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

Vazilin va lignin (yoki qog‘oz salftkalar) – grimni yo‘qotishda ishlatiladi.

Grim jarayonida bir qator gigiyena qoidalariga rioya etilishi zarur. Yuzga umumiy ton berishdan oldin avvalo vazelin surtish, so‘ngra uni lignin bilan yaxshilab artish kerak. Shunday qilinsa, teridagi mayda teshikchalarga grim tiqilib qolishining oldi olinadi. Shundan keyingina aktyorga parik kiydirish va yuziga ton berish mumkin. Yuzga umumiy tusni gubka orqali berish qulaydir. Grim tayyor bo‘lgach, yuz yaltiramasligi uchun unga pushtiroq tusdagi upa sepiladi. Albatta, upalangandan so‘ng grimning rangi bir qadar xiralashadi. Bo‘yoqlarni tanlashda bu holatni ham hisobga olish kerak, albatta.

Aktyorlarning har birida o‘z shaxsiy bo‘yoq qutichasi bo‘lishi va uni ozoda saqlashi maqsadga muvofiq. Vaqti-vaqti bilan bo‘yoqning ustki ifloslangan qatlamini olib turish tavsiya qilinadi. Teridagi ustaradan qolgan tilingan yara yoki husnbuzarni grim bilan qoplamagan ma’qul.

Grimni upalash oldidan bo‘yoqli qutilarni yopish yoki stoldan olib qo‘yish kerak. Grimni yuzdan olib tashlanganidan keyin uni sovuq suv bilan yuvish zinhor mumkin emas.

Grimchi o‘z xonasining ozodaligiga ham jiddiy e‘tibor qaratishi kerak. Xonani changdan xalos etib, sochiq va salfetkalarining tozaligiga ahamiyat berish kerak. Grim surtiladigan gubkalar tez-tez yuvib turilishi kerak. Ish jarayoni tugagach, grim stolining usti yana bir bor artilib, grim bo‘yoqlari, yelim mo‘yqalamlari tozalanishi zarur. Chunki mo‘yqalamlar qotib qolsa qayta ishga yaramaydi. Grimchi bo‘yoqlar qutisini yopiq holda saqlashi kerak, aks holda grim tarkibidagi suv miqdori kamayib, grimning qotib qolish hollari vujudga keladi.

Grimchi shaxsan o‘zi ham grim vaqtida ayrim narsalarga e‘tibor berishi, masalan, yoqimli, yengil grim qilishi, grim gubkasini yumshoq yurgazishi, ya’ni yuzni tirnab yubormasligi, haddan tashqari egilib, aktyor yuziga yaqinlashib ketmasligi kerak.

Grim bo‘yoqlarini yuzga surishda uni massaj tarzida, ya’ni ajinga qarshi yo‘nalishda surtish kerak. Grimni yuzdan olish ham o‘z yo‘nalishida bo‘lishi kerak.

Grim eskizi ustida ishlash. Ba’zi teatr kollektivlarda spektakl yaratilishi jarayonida grimning ulkan ahamiyati ko‘pincha hisobga olinmaydi. Obraz yaratilishidagi eng mas’uliyatli bosqichlardan biri bo‘lgan grim ustida ishlash bunda deyarli kuzatilmaydi. Taxminan shunday bo‘ladi: grim qilishni bilmaydigan aktërlar spektaklni umuman grimsiz repetitsiya qiladilar. Premieraga yoki asosiy repetitsiyaga taklif qilingan professional grimchi ko‘pincha pesa matnini o‘qimagan holda ham o‘zining erkin fantaziyasi va malakasiga tayanib, o‘z universal pariklarini ishlatib grim qilaveradi.

O‘z-o‘zidan tushunarliki, bunday holda spektaklning badiiy jihatdan yaxlitligi haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Shu tariqa havaskorlik, ya’ni eng yomon ma’nodagi «havaskorlik» vujudga keladi.

Grim ustida ishlash nimadan boshlanadi? Avvalo, grimni tanlash jarayonidan boshlanadi. Buning uchun esa qahramon «qiyofasini izlash», ya’ni u

o'zida nimalarni ifodalashini aniqlab olish kerak. Buning uchun pesani diqqat bilan o'qib chiqish va personajning qiyofasi yoki xarakter jihatlari haqida konkret yozilgan joylarini belgilab olish kerak. Chunki, insonning xarakteri, millati, yoshi, hatto kasbi va biografiyasi uning qiyofasida o'z belgilariga ega bo'ladi. Har qanday pesa mazmunida bunday ko'rsatmalar mavjud bo'ladi.

Ba'zida bu ko'rsatmalar bevosita bo'ladi. Masalan, qahramonlarning birlari qiyofalari haqidagi gaplari yoki muallifning izohi kabilar. Ba'zida esa bu ko'rsatmalar g'oyatda obrazli bo'ladi va asar qahramonining qiyofasi haqida deyarli batafsil ma'lumot berilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, B.Shouning «Blanko Posnetaning fosh etilishi» pesasida Blanko obraziga shunday izoh berilgan: «Blanko – o'zining barcha belgilari bilan bezoridir. Uning yoshini aniq bilish uchun, uni yuvintirish kerak, ammo u qirqdan yoshroq, biroq tepaga qayrilgan mo'ylovi, peshonasidagi xurpaytirilgan sochi, uning nihoyatda tubanlashib ketganiga qaramasdan, oliftaligini oshkor qiladi. Boshini baland tutadi, lablari qat'iy qimtilgan, vaholanki, jonsarak yonayotgan ko'zlari uning aroqxo'rlarning alahsirashi holatiga yaqinlashib qolganini ko'rsatib turadi».

Ba'zida bunday ko'rsatmalar bilvosita bo'ladi, bunga qahramonlarning xatti-harakatlarini, xarakterini juda yorqin namoyon qiluvchi jumlar misol bo'la oladi.

Grim haqidagi ko'p rus qo'llanmalarida juda batafsil ma'lumotlar bor. Masalan, Molerning «Jorj Danden» komediyasidagi Sotanvil grimini izlash jarayoni haqidagi K.S.Stanislavskiyning xotiralari haqida ko'p gapiriladi. Grim haqida o'zimizda yangi yozilgan kitoblarda ham bu ma'lumotlar keltirilishi bejiz emas.

Shunga o'xshash jarayonlar boshqa mashhur aktërlar hayotida ham bo'lgan. Masalan, mashhur fransuz aktëri va rejissëri Sharl Dyullen kitobida quydagi satrlar bor: «...men ko'p personajlar bilan ishlaganman... Ular ko'pincha, faqat kostyumda va grimda bo'lganlaridagina so'zlashishga rozi bo'lganlar. Pirandelloning «Oriyat lazzati» komediyasidagi Boldevinoning sahnaga eng modali kostyumda va poxol shlyapada chiqishi shu zahoti menga personajning butun pesa davomidagi muomalasi va maqomini, xatti-harakat usullarini aytib beradi. Arman Salakruning

«Atlas-otel»idagi Avgust ham mening oldimga oxirgi daqiqada menga sahna ortidagi oyna oldida parigimni to'g'irlayotgan paytimda keldi. Men birdan uning qandaydir kulgili tomonlarini ko'rdim va grimni bir oz o'zgartirish uchun zinadan chopib chiqib tepaga, o'z xonamga ketdim va bu holat mening gapirish va o'ynash uslubimni uzil-kesil belgilab berdi.»

Grim izlashni bevosita yuzdan boshlamasdan, avvalo qog'ozda grim eskizlarini yaratish kerak. Afsuski, professional teatrdan ham bu narsa ahyon-ahyondagina bajariladi, natijada ba'zan grimni ortiqcha o'zgartirishga, unga qayta-qayta ishlov berishga to'g'ri keladi. Shu ma'noda havaskorlikda eskizlarning yo'qligi ishni yanada qiyinlashtirishi mumkin. Eskiz ma'lum bir akterga moslanmagan taqdirda ham foydali bo'ladi, chunki rassom tomonidan grafik tarzida topilgan obraz grim uchun asos bo'lishi, akter yoki grimchini talaygina izlanishlaridan ozod qilishi, qimmatli vaqtini tejashi mumkin.

Alohida obrazning eskizi bu qiyofa grimiga umumiy yo'nalish berishi mumkin. Grimning barcha eskizlarini dastlabki o'zaro solishtirish obrazlarning bir-biriga ta'sir kuchini, ranglar uyg'unligini, uslubiy izchillikni tasavvur etish va tekshirish imkonini beradi.

Ba'zida eskiz tayyorlash uchun qandaydir tasviriy san'at asari boshlang'ich asos bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Masalan, ba'zi rus pesalarini qo'yishda grim uchun V.G.Perov, V.YE.Makovskiy, I.M.Pryanishnikovlarning risolalarida tasvirlangan personajlarning qiyofalaridan foydalanilganligi qayd etilgan. Bu rassomlar buyuk dramaturgning zamondoshlari bo'lib, o'z talantlarining kuchi bilan tamoshabinga A.N.Ostrovskiyning ko'p personajlarini «o'z ko'zi bilan ko'rgandek» tasavvur qilishiga yordam bera olganlar.

Teatr kollektivining rassomi yoki o'zining bo'sh vaqtini dramatik san'atga bag'ishlagan boshqa har qanday kishi portret reproduksiyalarini, o'ziga xos ta'sirli qiyofalar fotosuratlarini gazeta, jurnal va boshqa yerlardan yig'ib borishi kerak. Atrofdagi odamlarning qiyofalariga diqqat bilan qarashga, ularning eng ajoyiblarini o'z bloknotiga chizib borishga harakat qilishi kerak. Bu illyustrativ material rol va grim ustida ishlashda bebaho yordam ko'rsatishi mumkin.

Ko'pgina rassomlar ijodiy uslubi va bajarilishi turlicha, ammo birday o'tkir va ifodali bo'lgan ajoyib grim eskizlar namunalarini qoldirganlar. Xarakterni o'ta yaqqol ochib beruvchi namuna sifatida A.Y.Golovin tomonidan ishlangan ig'vogar Shprik grimining eskizini ko'rsatish mumkin (Lermontovning «Maskarad» dramasi). K.A.Korovin tomonidan Rimskiy-Korsakovning «Mlada» operasiga chizilgan eskizlari ham nihoyatda ifodalidir. Bir nechta chizgilar bilan rassom Varyagin va knyaz qarolining umumlashgan obrazini yaratadi. Ostrovskiyning «O'zimizning odamlar – surishib ketamiz» komediyasiga B.M.Kustodiyev chizgan grim eskizlari ham ajoyib. Bu yerda muhitni bilish kinoya bilan uyg'unlashadi. Rassom Lipochka va Tishkaga shunday munosabatda bo'ladi. Mayakovskiyning «Qandala» komediyasiga chizilgan eskizlarda esa rassomlar (Kukrinikslar) o'z qahramonlarini hech takallufsiz mazah qiladilar. Meshchanlar va ta'magirlar oilasi ataylab karikatura tarzida ko'rsatilgan. Bu holat Mayakovskiy dramaturgiyasining fosh qiluvchi mohiyatiga to'la mos kelgan. Rassom M.V.Libakov tomonidan Shekspirning «Gamlet» tragediyasiga chizgan eskizlari misolida grimni izlashdagi ijodiy jarayonning borishini kuzatish mumkin. Bu yerda Gamlet va boshqa personajlarning obrazi qanday yaratilishini ko'rish mumkin. Rejissyor va rassom N.P.Akimov grim eskizlarini o'ziga xos aniqlik va o'tkirlik bilan chizgani ko'p kitoblarda qayd etilgan. Uning «Revizor»ga chizgan grim eskizlari personajlarni ta'riflashda katta ta'sirchanligi bilan ajralib turgan ekan.

Teatr grim texnikasi. Grim bir necha xil tuzilishda bo'ladi. Bular yosh, keksa semiz, ozg'in odamlarning yuz tuzilishidir. Bu tuzilishlarni o'rganib, o'z yuzingizda bir paytning o'zida ikki xil - yosh , ozg'in yuz va keksa, semiz yuz tuzilishini birlashtiruvchi grim yasab ko'rishingiz mumkin. Bu tuzilishlarga obraz yasash uchun tayor grimlar deb qarash kerak emas. Chunki badiiy, to'laqonli obraz har qanday inson yuziga o'xshab o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bilan birga ifodali ham. Grim tuzilishi obraz xarakterini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Agar aktyor yosh bo'lsa, obraz yaratish uchun uning yuzida sezilarli o'zgartirish yaratishga deyarli hojat yo'q. Grim bilan uning yuzidagi mavjud

nuqsonlarni yo‘qotish kifoya (haddan tashqari semiz, kichkina ko‘z va boshqalar), bunda yuzga sahna talablariga ko‘ra o‘zgartirish kiritilgan bo‘ladi. Kattakon sahna o‘ynayotgan grimsiz aktyorning yuzi kulrang, ifodasiz yoki umuman, rangsiz dog‘ bo‘lib ko‘rinadi.

Sahna va tomosha zali qanchalik kichkina bo‘lsa, grim shunchalik yumshoq va nozik bo‘lishi kerak. Bu qoida hamma grimlovchilarga taaluqlidir.

Grim bo‘yoqlar, parik, mo‘ylab, soqollardan foydalanish texnikasini bilish kerak. Ko‘zlarning forma va xarakteri, lab, qosh va soch turmaklari personajlarning xarakterini ochib beradi.

Burun va ko‘zni o‘zgartirish uchun rangli plastirdan foydalaniladi. Aktyor siymosini o‘zgartirish uchun plastic rezinadan foydalaniladi. Grim kraskalari oq vazelin, oq mumdan iborat. Sharq teatrida grim shartli xarakterga ega. Xitoyda grim XIII-XIV asrlarda qayd etilgan. Aktyorlar yuzlariga quyuq bo‘yoqlar surib, personajning kim ekanligini ko‘rsatadigan rasmlar solinadi. Ular shu bilan qahramonning jamiyatdagi o‘rni xarakteri va qismatini ko‘rsatishadi. Grim bo‘yog‘ida 12 xil rang ishlatiladi.

1. Qizil (rostgo‘y va vafodorli) ramzi.
2. Sariq (imperator avlodiga mansublik, tajribalik)
3. Moviy (ustamonlik, zo‘ravonlik) timsoli.
4. Oq (daxshatlik, firibgarlik).
5. Qora (kuch va qudrat, halol va sotilmaydigan obraz).
6. Siyoxrang (bosiqlik, e‘tiborli, oq ko‘ngil)
7. Ko‘k (qattiqqo‘llik, jaxldorlik).
8. Pushti (yaxshi niyat, haqiqatgo‘ylik).
9. Tilla va kumushrang (g‘ayritabiiy kuch xudolar, jinlar).
10. Kulrang (qarilik va nimjonlik belgisi).

11. Ijobiy obraz uchun simmetrik grim ishlanadi. Salbiy obraz uchun esa assimetrik grim ishlanadi.

Pekin musiqali dramasida 700 xil grim mavjud. 40 dan ortiq soqol, mo‘ylab, qosh xillari bor.

Hind teatrida personajlarning 5 guruhi bor.

1. Xudolar va qahramonlar - grimi.
2. Salbiy qahramonlar grimi.
3. O'rmon odamlari, alvastilar, yarimxayvon mavjudotlar grimi.
4. Ayollar, alvasti grimi.
5. Tarkidunyo qilganlar, oqil odamlar grimi.

Yapon teatri.

Ularda yuzga aniq chiziqlar tortiladi. Bu usul XVIII asrda kashf etildi. Bi grim bilan bahodir – askarlar roli o'ynalgan.

Asosiy rang - qizil rang (qizil- adolat, vatanparvar).

Ko'k rang (yomonlik, jodugarlik timsoli).

Qora rang - Yaponlarda bahodir jangchilar obrazini yaratishda foydalaniladi. Grim qo'lga va oyoqqa ham surtiladi.

Grim yaratish jarayonida kostyum katta ahamiyat kasb etadi. U grimning xarakteriga va rangli yechimiga ta'sir etadi. Sahna yorug'i ham grimning ta'sirchanligiga yordam beradi. Grim jarayoni: avval kostyum (shlyapa, sharf va hokazo), keyin burun va yuzga (nalepka) qo'yiladi, parik qo'yiladi, mo'yloab va soqol qo'yiladi. Va shundan keyin bo'yoqlar surtiladi.

Yosh bilan bog'liq grim bilan birga milliy grimlar ham mavjud. (Osiyo, Afrika).

Bunday grimlarda xalqning yuz tuzilishi inobatga olinadi, ko'zning formasi, burun, yuz, lab, ko'z rangi va sochning holati hisobga olinadi.

Grim ustida ishlash aktyordan tarixni, etnografiyasini tasviriyl san'atni bilishni talab qiladi.

Buni har bir grimyor yoki shu sohani o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchi, aktyor va rejissyor bilishi shart.

Grimlanuvchilar uchun amaliy tavsiyalar. Grim yaratishda avval pesani, rolni, davrni, voqeaning sodir bo'lgan joyi va boshqalarni puxta o'rganib chiqish lozim, ya'ni yaratiladigan grimga zarur bo'lgan materiallarni to'plash uchun katta tayorgarlik ishlarini olib boorish kerak. Grimlashning yagona uslubi, yagona

xususiyati mavjud emas. Grimning uslubi va xususiyatiga, soʻzsiz muallifning ijodiy fazilati, pesaning uslubi va uning janri taʼsir koʻrsatadi. Umumiy tus qoramtir, notekis, qizil dogʻlar, u doimo gʻazabli va serjahl boʻladigan holatda, ayniqsa, yaqqol sezilarli. Ijrochi ayolning yuzi anchalik keng boʻlsa, rol ijro etish uchun shunchalik yaxshi. Yuz tuzilishini engakni ravshanlashtirib, kattaroq qilish mumkin, bunda hukumronlik va qaysarlik xulqini ifoda qiladi. Burun yopishtirib qoʻyiladigan malhamlar yordamida kengaytirilib, yalpoqlantirilib, kattalashtiriladi yoki aksincha, tortib koʻtarilgan qilinadi. Koʻzlar kichik, shishib ketgan, qattiq tikilib qarovchan va qahrli; suriladigan boʻyoq - jigarrang yoki havorang (ijro etuvchi ayol koʻz qorachigʻiga mos holda). Yonoqlar keng, lunjlar osilib tushgan. Bunday taassurotni burundan quloq tomonga qizgʻish jigarrang boʻyoq bilan yarim doira shaklida chizilgan chiziq paydo qiladi. Bu chiziq ustidagi yonoqning qismi rav shanlashtiriladi, bu yonoqning osilganlik alomatini yaratadi. Uning yuzida burun orqasidan boshlanuvchi bir necha chuqur mayday ajinlar koʻz ostidagi «salqiganlik», yuzga jirkanch - nafratli iljayishni ifodalovchi peshonadagi tik va lablarning tashqi burchaklaridan pastga tushuvchi ikki ajinlar mavjudligi. Qiyiq toʻr roʻmol va lenta bilan oʻralgan, hurpaygan soch. Agar ijrochi ayolning sochi kalta boʻlsa, u holda parik ishlatish mumkin. Upa sepilgan parikni (oʻsha davr odatiga koʻra) u, albatta uy sharoitida kiyib yurmaydi. Qoshlar kichik, tortib koʻtarilgan yoki egilgan, bular ham yuzga badjahillik va ayyorlik taassurotini beradi. Grimda ijrochi ayolning tashqi qiyofasi (uning qaddu-qomati, boʻyi, yuz tuzilishi, shakli, koʻzning joylashganligi, kattaligi va shunga oʻxshashlar) katta ahamiyatga egadir. Agar ijrochi ayol baland boʻyli va ozgʻin boʻlsa, bu holda uning tabiiy belgilarini boʻrttirish lozim: yuzni ozgʻinroq, koʻzlarini chuqurroq joylashgan, burunni - qirgʻiy burun, engakni uzunchoqroq qilish lozim. Bu obraz, yuqorida tasbirlanganiga nisbatan umuman qarama – qarshi boʻlsa – da, lekin juda yorqin va taʼsirchan boʻlishi mumkin.

Grim yaratilayotganda, ayniqsa, oʻziga xos grimlar yaratish paytida, albatta, ijrochining tabiiy holatlarini hisobga olish va ularga asoslanish zarurdir.

X U L O S A

Teatr – tarbiya maskani. “Teatr deganda biz aynan sahnani nazarda tutmoqdamiz. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o‘xshaydirki, unga har kim kirsam, o‘zining husn va qabihligini, ayb va nuqsonini ko‘rib ibrat olur... Turkiston tilida hanuz bir teatr o‘ynolmag‘onligi barchangizga ma‘lumdir. Shul sababli ba‘zi kishilarimiz teatrga, ehtimolki o‘yinbozlik yoki masharabozlik ko‘zlari ila boqurlar. Holbuki teatrning ma‘nosi “ibratxona” yoki “ulug‘lar maktabi” degan so‘zdir”. Teatr asoschilaridan biri Munavvar qorining fikrlaridan, teatrning jamiyat bilan bog‘liqligi, jamiyatni kelajakka ruhlantirish, insonlarga yo‘l ko‘rsatuvchi ma‘naviy tarbiya maskani ekanligini, unda har bir tomoshabin o‘z husnini ko‘rishi, hayotning, yon atrofimizda bo‘lgan voqea-hodisalarning aktyor ijrosidagi talqinini ko‘rib oq va qora, yaxshilik va yovuzlikning farqiga borish kerakligini anglatadi.

O‘zbek teatrining isloh etilishi va ma‘naviy jihatdan yuksalishida alohida o‘ringa ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti teatr san‘ati va uning ijodkorlari haqida quyidagilarni ta‘kidlagan edi: “Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini ham inobatga olish kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug‘orilgan asarlar yaratish – barcha san‘at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo‘lishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste‘dodli dramaturg va rejissyorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi”¹, – deb ta‘kidlagan fikrlarida san‘atning ayniqsa sahna san‘atining yuksak kuchga ega ekanligini, bu sohani yuksaltirish uchun yoshlarga e‘tibor qaratish kerakligi kunning muhim vazifalaridan biri ekanligini bilib olish mumkin.

Darhaqiqat, aktyorlik san‘ati noyob iste‘dod va mehnat talab etadigan kasb bo‘lib, o‘z o‘rnida fidoiylik va sab-toqatga muhtoj hamdir. Teatr darg‘asi K.S.Stanislavskiy ta‘biri bilan aytganda “Aktyorning roli parda yopilishi bilan tugamaydi, u hayotda ham go‘zallik tarqatuvchi va targ‘ib etuvchi bo‘lishi lozim”.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: 2008. – B. 145.

“Bizning artistlik fe’limiz hammaga ma’lum: sahnada xunuk kishi – chiroylik, pakana kishi – novcha, beso’naqay odam - chaqqon bo’lib ko’rinishni istaydi. Tragik va lirik layoqatga ega bo’lmagan – Gamlet va oshiq – ma’shuqlar rolini, sodda odamlar – Don Juanni, komiklar – Qirol Lir rolini o’ynashni orzu qiladi. Havaskordan qanday rollarni o’ynashni istaganini so’rab ko’ring – a, u o’ynamoqchi bo’lgan rollarni eshitib hayron qolasiz. Kishilar hamisha layoqatlari bo’lmagan ishlarga ko’proq qiziqishadi, aktyorlar ham o’zlarida yo’q narsani sahnadan izlashadi. Bu xavfli, yanglish yo’l”¹.

Aktyorlik ijrosida birgina mahorat tomoshabinga yetarli zavq bag’ishlay olmaydi. Garchand aktyorlik ijrosida mahorat birlamchi vosita hisoblansada, lekin aktyori mahoratining badiiyligini ta’minlovchi nutq, libos, xatti-harakat, mizanssena, grim, butafor va rekvizitlar ham ijroning ajralmas badiiy omilidir.

Birgina grim san’ati aktyorlik ijrosida quyidagi jarayonlarda yordam beradi:

- yaratilajak qiyofaning tashqi ko’rinishini ta’minlaydi;
- spektakl davrini belgilaydi;
- obraz xarakterini ochib beradi;
- xarakterlilikni belgilaydi, aktyorning rolga kirishiga yordam beradi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida ham quyidagilar o’rganildi:

- aktyorlik san’atida grim san’atining ahamiyati rejissyorlik ta’limi yo’nalishida bitiruv malakaviy ishi obekti sifatida o’rganildi;
- aktyorlik san’atining ijtimoiy-ma’naviy asoslari tahlil etildi;
- grim san’ati tarixi va uning badiiy-ifodaviy omillari o’rganildi;
- aktyor grimi ustida ishlash usullari ilmiy tahlil etildi;
- grim tayyorlashning tashkiliy asoslari yoritildi.

Grim qilish teatr san’atidagi texnik jarayon emas, balki, ijodiy jarayondir. Bu kasb bilan aktyorlik san’atini nafaqat sevuvchilar, balki, qalban his qiluvchilar, eng avvalo aktyorlik maktabini o’taganlar chin ma’noda shug’ullanishi, grimni haqiqiy san’at darajasiga olib chiqishi mumkin. Demakki, grim bu haqiqiy san’at va grimyorlar san’atkorlardir.

¹ Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 97.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent:O‘zbekiston,2003. 40-b.
2. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi O‘RQ-406-sonli “Yoshlarga oid Davlat siyosasi to‘g‘risida”gi Qonuni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 20 oktabrdagi “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 26 martdagi “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”ga Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 4 iyundagi “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-1771-son Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2778-son qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari*

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 432 b.
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. - 304 b.

4. *O‘quv adabiyotlari*

1. Abdullayeva M. Rejissura. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 176 b.
2. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
3. Galeeny X.Sch. Schauspieler Make-up. – Frankfurt am Main: Pferd, 2003. 184-b.
4. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2004.
5. Ismoilov M. Sahna pardozi. – Toshkent: Istiqlol, 2004. – 124 b.
6. Jalilova F. Grim. Darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 216 b.
7. John W. Kirk, Ralph A. Bellas “The art of Directing”. Text book for Directors and Actors, Coloforniya, 1985. – 240 p.
8. Jo‘rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
9. Lenskiy A.P. Zametki o mimike i grime / Stati. Pisma. Zapiski. – Moskva, 1950.
10. Livshits P. B. Ssenicheskiy grim. – Moskva, 1939. 162 str.
11. Mahmudov J., Mahmudova X. Rejissura asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 224– b.
12. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Bilim, 2005. – 192 b.
13. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b.
14. Minavarov SH. Teatr tarbiya maskani. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.

15. Muhammedov M. Rejissura asoslari. – Toshkent: Shoakbar bosmaxonasi, 2008.
16. Pichsek G.Dh. Grime art. – Gamburg: Weiße Wolke, 1998. 221- b.
17. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi XVIII asrdan XX asr avvaligacha. – Toshkent: Fan, 1968.
18. Rizayev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997. – 176 b.
19. Raugul R.D. Grim. – Moskva, 1939. 142 str.
20. Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
21. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 468 b.
22. Steimann A. Die Maske des Bühnenkünstlers. Velhagen-Klasings Monatshefte. 1909. 168-b.
23. Siromyatnikova I.S. Iskustvo grima i makiyaja. – Moskva: Ripol Klassik, 2004. 272 str.
24. Umarov M. Mannon Uyg‘ur va milliy teatr estetikasi. – Toshkent: Musiqa, 2006. – 324 b.
25. Usmonov R.I. Rejissura. – Toshkent: Fan, 1997. 222 – b.
26. Yusupova M.R. va boshqalar. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: O‘zR FA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2015. 128 b.

5. Internet saytlari

1. <http://www.dsmi.uz> – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti sayti
2. ZiyonET – O‘zbekiston ta’lim portali
3. <http://www.teatr.uz> – O‘zbek Milliy Akademik drama teatri sayti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“KINO, TELEVIDENIYE VA RADIO SAN’ATI” FAKULTETI
“ESTRADA VA OMMAVIY TOMOSHALAR SAN’ATI” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY (IJODIY) ISHI

“VATAN POSBONLARI - EL YURT TAYANCHI”

**14 YANVAR “VATAN HIMOIYACHILARI KUNI” HAMDA
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL
TOPGANINING 25 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN**

TEATRLASHTIRILGAN KONSERT

Sahnalashtiruvchi rejissyor:
**“Kasb ta’limi: estrada va ommaviy
tomoshalar rejissyorligi” bo‘limi
4-kurs talabasi
ROBIYA RIZAYEVA**

Badiiy rahbar:
**“Estrada va ommaviy tomoshalar
san’ati” kafedrasi dotsenti
JAHONGIR MAMATQOSIMOV**

TOSHKENT - 2017

**“VATAN POSBONLARI – ELT YURT TAYANCHI”
TEATRLASHTIRILGAN KONSERT
S S E N A R I Y S I**

**O‘tkaziladigan vaqt:
2017 yil 14 yanvar
soat 14.00**

**O‘tkaziladigan joy:
Benkov nomidagi Respublika
rassomlik kolleji**

ASOSIY MAQSAD

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari o‘tgan tarixan qisqa davrda murakkab shakllanish yo‘lini bosib o‘tdi va bugungi kunda son jihatdan ixcham, harakatchan, zamonaviy talablarga javob beradigan, yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan armiya sifatida o‘zini namoyon etmoqda.

Qurolli Kuchlarni izchil isloh etish davomida prinsipial yangi tashkiliy-shtat tuzilmalarini, harbiy boshqaruv tizimlarini, turli qo‘shin turlari harakatlarini muvofiqlashtirish va ularning hamkorligini ta‘minlash mexanizmlarini shakllantirish, harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligini va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni tubdan yaxshilash bo‘yicha ko‘lami va ma‘no-mazmuniga ko‘ra ulkan va beqiyos ishlar amalga oshirildi.

Dunyodagi vaziyat shiddat bilan o‘zgarib, xavfsizlikka nisbatan tahdid va xatarlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish va ularning jangovar tayyorgarligini, mamlakatimizga qarshi qaratilgan har qanday tajovuzga o‘z vaqtida va munosib zarba berish qobiliyatini oshirishni ta‘minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni vaqtda Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va jangovar tayyorgarligini har tomonlama mustahkamlash, mamlakatimiz suvereniteti va uning davlat chegaralarini himoya qilish choralarini kuchaytirish borasidagi ishlarni davom ettirish ana shu tashqi siyosiy strategiyani izchil amalga oshirish, O‘zbekistonning xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

“Vatan posbonlari – elt yurt tayanchi” mavzusida o‘tkazilayotgan konsertning bosh maqsadi yuqoridagi g‘oya va maqsadlarni o‘z oldiga vazifa bilib, tomoshabinlar ko‘nglidagi vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish va vatan himoyasini oliy saodat va burch deb bilishni ta‘kidlaydi.

Tadbir o‘tkaziladigan joy tadbir mavzusiga mos bezatilgan. Sahnaga va zalga kiraverishda vatanparvarlik mavzusi va harbiylar hayotiga bog‘liq turli qurol-aslahalar, foto suratlardan iborat ko‘rgazmali vositalar qo‘yilgan.

Fondan “Chorlov” musiqasi beriladi.
Musiqi sadolari ostida sahnaga boshlovchi chiqib keladi.

- 1-boshlovchi** - Vatan-ona so‘zi naqadar laziz!
Sensan har narsadan mo‘tabar aziz,
Hurmatingni saqlar har bir o‘g‘il, qiz.
Muqaddas, mo‘tabar ulug‘ Vatanim
Sharaflar, shonlarga to‘liq Vatanim,
O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.
- 2-boshlovchi** - O‘zbekning peshonasi po‘latdan yaratmishdir,
Yumushini malomat, zaxmatdan yaratmishdir.
Bir so‘z bilan aytganda mehnatdan yaratmishdir,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.
Tinglasang, tuganmaslik afsonasi bor bu el,
Sarkardasi, shoiri, taronasi bor bu el,
Ming oqilga arzirlik devonasi bor bu el,
Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.
- 1-boshlovchi** - Assalomu-alaykum aziz ustozlar, hurmatli o‘quvchi yoshlar.
- 2-boshlovchi** - Assalomu-alaykum mard va jasur o‘g‘lonlar, vatan himoyachilari.
- 1-boshlovchi** - Davraga O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i olib chiqilsin.
- 2-boshlovchi** - O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi,
harbiy forma kiygan o‘quvchi davraga O‘zbekiston
Respublikasi Davlat bayrog‘ini olib chiqadi.**

- 1-boshlovchi** - 14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni.
Mustaqil O‘zbekistonda ushbu bayram o‘z qurollantirish kuchlarni tashkil etishga bag‘ishlangan. 1992 yil 14 yanvarda mamlakat parlamenti mamlakat hududidagi harbiy o‘quv yurtlar va boshqa harbiy shakllarining barcha qismlari va birlashmalarini O‘zbekiston Respublikasi yurisdiksiya qaramog‘iga o‘tishi to‘g‘risida qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etildi. 1993 yilda 29 dekabrda 14 yanvar Respublikamizda - Vatan himoyachilari kuni deb e‘lon qilindi.

2-boshlovchi - Xalqimiz hayotida muhim o‘rin tutuvchi bu ikki bayram mohiyatan bir-biriga uyg‘un. Chunki tinchlik va barqarorlik bo‘lgan mustaqil Vatanda taraqqiyot bo‘ladi, bayramlar bayramlarga ulanadi, uning shukhi-ruhi qalblarga singadi, tatiydi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda qo‘lga kiritilgan yutuq va marralarning asosi, eng katta boyligimiz – yurtimizdagi tinchlik va barqarorlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglik, millatlararo totuvlikdir. Bu boylikni asrab-avaylash, mustaqilligimizni mustahkamlash, yurtimiz barqarorligi va xavfsizligini ta‘minlashda milliy armiyamizning alohida o‘rni bor.

Aziz do‘stlar, siz azizlarni bayram bilan muborakbod etish uchun so‘z kollejimiz direktori _____ ga.

Kollej direktori _____ tabrigi

1-boshlovchi - (Monitordan harbiylar hayotiga oid videolavhalar beriladi.) Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov rahnamoligida mamlakatimizda bugungi kun talablariga javob beradigan tezkor va ixcham, zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta‘minlangan, jangovar qobiliyat va tayyorgarlikka ega milliy armiya barpo etildi. Harbiy xizmatchilarning maishiy sharoitini yaxshilash, ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ana shunday doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlik samarasida bugun harbiy xizmat yigitlarimiz uchun sharaflı ishga, sadoqat va jasorat maktabiga aylandi.

2-boshlovchi - Davlat barqarorligini ta‘minlash nafaqat zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslaha, balki armiyadagi axloqiy va madaniy muhit, harbiylarning ma‘naviy-ruhiy tayyorgarligiga ham bog‘liq. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, armiyamizning kuchiga kuch qo‘shadigan, vaqti kelganda, hal qiluvchi omilga aylanadigan qudratli bir vosita borki, uning nomi – harbiylarimizning ma‘naviy-ruhiy tayyorgarligi, ularning baquvvat iroda, faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishi, eng muhimi, kim uchun va nima uchun harbiy burchini ado etayotganini chuqur anglashi va tushunishi demakdir.

1-boshlovchi Bayram bilan tabriklash uchun so‘z kollejimiz mehmoni podpolkovnik Ashurov Bahrom Ergashevichga. Marhamat.

Kollej mehmoni podpolkovnik Ashurov Bahrom Ergashevich tabrigi

- 1-boshlovchi** - 2010 yil 12 yanvarda Toshkentda ochilgan “Vatanga qasamyod” monumenti ham o‘z mazmun-mohiyati bilan ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi va g‘oyasi asosida yaratilgan monument yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, harbiylarimizda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirishda muhim omil bo‘lmoqda.
- 2-boshlovchi** - Ushbu muhtasham majmuada tasvirlangan alpkelbat o‘g‘lon davlatimiz bayrog‘ini ko‘ziga to‘tiyo qilib, Vatan himoyasi uchun, ota-bobolarimiz xoki osoyish topgan muqaddas zaminning har qarich tuprog‘ini asrash uchun tayyorman, deb tiz cho‘kib qasamyod qilmoqda. Mard va jasur farzandini barkamol etib voyaga yetkazgan munis ona esa harbiy xizmatga otlangan o‘g‘liga oq fотиha berib, oq yo‘l tilamoqda.
- 1-boshlovchi** - 2-kurs o‘quvchilari ijrosida “Vatan madhi” qo‘shig‘ini tinglang. Marhamat.
- 2-kurs o‘quvchilari ijrosida
“Vatan madhi” qo‘shig‘i
(Video monitordan lavha beriladi)**
- 1-boshlovchi** - Bahrayn suvlarga chaydim yuzimni,
Nasimlar esdilar iliq arobiy,
Bir osmon to‘ldirib keldi ko‘ksumni,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.
- 2-boshlovchi** - Ne zotlar o‘tdilar Vatandan ayro,
Sevinchi savdoyu sog‘inchi sahro,
Ko‘ksumni to‘ldirib keldi bir daryo,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.
- 1-boshlovchi** - Sahnaga 2-kurs rus guruhi o‘quvchilarini taklif etamiz. O‘quvchilar ijrosida zamonaviy harbiylar raqsini tomosha qiling. Marhamat.
- 2-kurs rus guruhi o‘quvchilari ijrosida zamonaviy
harbiylar raqsi**
- 1-boshlovchi** - Har ko‘ngilning o‘z aziz tushunchalari, ardog‘iga, mehru-muhabbatiga munosib joylari bo‘ladi. Mana shu muqaddas zamin – Vatan tuyg‘usi har bir ko‘ngilda mujassam desak yanglishmaymiz. Inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan maskani, uning tanti, mehnatkash, jafokash xalqiga nisbatan hamisha samimiy munosabatda bo‘lgan.

- 2-boshlovchi** - Bu bejiz emas albatta. Zero, tugʻilib oʻsgan diyor har birimiz uchun muqaddas sajdagohdir. Vatanga muhabbat ostonadan, yaʼni oiladan, mahalladan boshlanadi. Har birimiz obod va ozod, kun sayin goʻzallashib borayotgan yurtimizda tinchlik va hamjihatlikda yashab kelmoqdamiz va har lahzada atrofimizda boʻlayotgan oʻzgarishlarga daxldorlik hissini anglaymiz. Shu asnosda mana shu diyorning tinchligini, xalqining xotirjamligini taʼminlashdek zahmatli yumushni sidqidildan bajarayotgan kasblar borki ularning mehnatlarini qadrlash barobarida masʼuliyatli, zahmatli ekanligini ham taʼkidlash zarur. Mana shunday kasblardan biri harbiy sohadir.
- 1-boshlovchi** - Endi navbatni kollejimizning iqtidorli oʻquvchilari tomonidan tayyorlangan gimnastika koʻrgazmasiga. Marhamat.

**Kollejning iqtidorli oʻquvchilari tomonidan
tayyorlangan gimnastika koʻrgazmasi namoyishi.**

- 1-boshlovchi** - Bugun yurtimizda erkin va obod hayot, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish, xalqimiz turmush darajasini koʻtarish, jahon maydonida munosib nufuzli oʻrin egallash yoʻlida qoʻlga kiritayotgan yutuqlarimiz haqida mamnuniyat bilan gapirishimiz mumkin. Mustaqil Oʻzbekiston davlatining dunyo xaritasidan oʻrin egallaganiga uncha koʻp vaqt oʻtmagan boʻlsa-da, bu davr ichida Oʻzbekistonda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yoʻlida dadil qadamlar qoʻyildi.
- 2-boshlovchi** - Ayniqsa, mamlakatimiz mudofaa tizimini mustahkamlash, xavfsizligimizni taʼminlashga qodir boʻlgan qudratli, professional armiyani shakllantirish borasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Atrofimizda, yaqin va uzoq mintaqalarda qarama-qarshiliklar, nizolar, xalqaro terrorizm kabi dahshatli xavf tobora kuchayib borayotgan murakkab bir vaziyatda el-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligini saqlash, uni turli balo-qazolardan asrash, sarhadlarimiz daxlsizligini taʼminlash maqsadida harbiy tizim mutlaqo yangidan tashkil etildi. Harbiy sohada yuz berayotgan bu jarayonlar taʼlim muassasalarida oʻquv mashgʻulotlarining asosiy maqsadini vatanparvarlik tuygʻularini kuchaytirishga qaratilishini talab etmoqda.

- 1-boshlovchi** - Kollejimiz iqtidorli o‘quvchilari tomonidan “Terrorizmga qarshi” sahna ko‘rinishini tomosha qiling.

**Kollejning iqtidorli o‘quvchilari tomonidan
“Terrorizmga qarshi” sahna ko‘rinishi.**

- 1-boshlovchi** - Bu dunyoda chamanlar ko‘p,
Bu dunyoda vatanlar ko‘p.
Bu dunyoda yashnar gullar,
Barchasida yayrar dillar.
Mening uchun aziz bo‘ston,
O‘zbekiston! O‘zbekiston!
Yo‘ling yorug‘ yo‘llarga tutash,
Yuzingda,
Ko‘zingda,
Dilingda quyosh.
Xazon bo‘lma hech qachon
O‘zbekiston! O‘zbekiston!

- 2-boshlovchi** - Ona yurt,
Mastona yurt,
Gulxona yurt,
Hamhona yurt,
Koshona yurt,
Parvona yurt,
Mardona yurt.

Kollej qizlari tomonidan zamonaviy raqs tomosha qiling.
Marhamat.

Kollej qizlari ijrosida zamonaviy raqs.

- 1-boshlovchi** - Har yurtning insonlari tinch yashar ekan, demak u yurtda turmush farovon, obod bo‘laveradi. Chunki, u yurtning posbonlari Vatan xizmatida o‘zining fidoyiligini ko‘rsatmoqdalar.

- 2-boshlovchi** - Bu dunyoda g‘ururimizni oshiruvchi, iymon-e‘tiqodimizni butlovchi, ko‘zimizga to‘tiyo etib yashaydigan muqaddas sajdagohimiz Vatandir. Bu tushuncha shunday azizki, hayot yo‘llarida og‘ir, sinovlarda kuch-quvvat ato etib, mardlik va jasoratga undaydi.

- 1-boshlovchi** - Kollej qizlari tomonidan tayyorlangan hazil sahna ko‘rinishini tomosha qiling.

Kollej qizlari ijrosida sahna ko‘rinishi.

- 1-boshlovchi** - Jamiyatimizning boshqa jabhalarida bo'lgani singari mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida O'zbekistonimizning o'z milliy armiyasini yaratish va takomillashtirishga jiddiy kirishildi. Bu o'z-o'zidan bo'lmaganini, qancha to'siqlaru qarshiliklarga dadil turib, Qurolli Kuchlarni isloh qilishga yo'naltirilgan dasturga og'ishmay rioya etilganini bugun milliy va zamonaviy armiyamiz tarixi misolida ko'rayapmiz.
- 2-boshlovchi** - Milliy armiyamizning yurtimizda yashayotgan ahil-inoq millatlaridan tashkil topgan ofitserlari, askarlarining sarhadlarimizni mustahkam himoyalash hamda osoyishtalikni ta'minlash yo'lida olib borayotgan say-harakatlari natijasida el orasida ularning nufuzi kundankunga oshib bormoqda. 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni eng ulug', eng aziz ayyomlardan biri sifatida milliy bayramimizga aylanib, yuksak darajada nishonlanayotir.
- 1-boshlovchi** - Kollejimizning 3-kurs o'quvchilari ijrosida zamonaviy qo'shiq.
3-kurs o'quvchilari ijrosida zamonaviy qo'shiq.
- 1-boshlovchi** - Ta'kidlash joizki, Vatanimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikda boshqa sohalar singari ichki ishlar xodimlarining ham munosib hissasi bor. Elu yurt osoyishtaligini ta'minlash, xalq orasida, ayniqsa, yoshlar shuurida huquqiy madaniyatni shakllantirish, jinoyatlarning oldini olish va barcha huquqbuzarliklarga barham berishdek mas'uliyatli ishlarda o'z manfaatingizdan yurt manfaatini ustuvor bilganingiz farovonlikni barqarorlashtirishda muhim o'rin tutganini davlatimiz rahbari va yurtdoshlarimiz tomonidan tez-tez e'tirof etilayotgani ham ichki ishlar tizimidagi har bir xodimga berilgan bahodir.
- 2-boshlovchi** - Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «... bugun o'tgan davr mobaynida harbiy va mudofaa qurilishi, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligini mustahkamlash sohasida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, Vatanimiz sarhadlarining mudofaasi va himoyasi, xalqimizning tinch mehnati hamda osoyishtaligini ta'minlash ishonchli qo'llarda, deb to'liq asos bilan ayta olamiz». Shu bilan birga, har jihatdan harakatchan, yaxshi qurollangan, zamonaviy qurol-yarog'

va texnika bilan ta'minlangan armiyani shakllantirish bo'yicha boshlangan ishlarimizni izchil davom ettirib, xalqimiz munosib va haqli ravishda faxrlana oladigan Qurolli Kuchlarni yaratish yuzasidan qilinishi zarur bo'lgan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

1-boshlovchi - Kollej o'quvchilari tomonidan tayyorlangan "Yoshlar norkomaniyaga qarshi" sahna ko'rinishini tomosha qiling.
"Yoshlar norkomaniyaga qarshi" sahna ko'rinishi.

1-boshlovchi - Vatan guldir, Vatan shamoldir,
Tushlarimni tinglagan irmoq.
Vatan she'rdir, Vatan hayoldir,
Boychiborlar suv ichgan buloq.
Bir armonki ko'ksimga to'lib
Ko'zlarimda aks etgan jola.
O'yni bilan ovora bo'lib
Onasiga to'ymagan bola.

2-boshlovchi - Yo'q, aslida vatan-quyoshdir
Istuvchi hammani birday.
Tog'lar-tog'mas, zo'r yoriltoshdir
Men joyida tiz cho'kib yig'lay...
Bu o'lkada Alpomish bilan
Barchinoyning o'g'li, qizi bor,
Gul yuzida titrarkan shabnam
Demak baxt bor, demak sevgi bor.

1-boshlovchi - Aziz do'stlar 14 yanvar "Vatan himoyachilari kuni" hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil topganining 25 yilligiga bag'ishlangan "Vatan posbonlari - el yurt tayanchi" deb nomlangan teatrlashtirilgan konsert dasturimiz o'z nihoyasiga yetdi.

2-boshlovchi - Xayr, sog'-salomat bo'ling.

**“VATAN POSBONLARI – ELT YURT TAYANCHI”
TEATRLASHTIRILGAN KONSERT
SAHNALASHTIRISH JARAYONI**

I SH R E J A S I

20 noyabr - 1 dekabr - tadbir mavzusini, g‘oyasini aniqlash, ssenariy mazmunini belgilash, uning taxminiy kompozitsiyasini tuzish

1-5 dekabr - ssenariy yaratish uchun zarur badiiy materiallar to‘plash

5-10 dekabr - ssenariyning xomaki variantini qog‘ozga tushirish

10-15 dekabr - ssenariyni tugallab, muhokama qilish uchun badiiy rahbar va kafedra professor-o‘qituvchilariga topshirish

15-16 dekabr – rollarni taqsimlash

16-20 dekabr – stol atrofida o‘qish

20-22 dekabr – ilk sahnaga chiqish

20 dekabr dan 13 yanvargacha – repititsiya

5-8 yanvar – Bitiruv malakaviy (ijodiy) ishining ifodaviy vositalari (musiqa, shovqin, libos, grim, dekoratsiya, rekvizit, butafor) bilan ishlash

10 yanvar – Bitiruv malakaviy (ijodiy) ishining taklifnomasi tayyorlash va tarqatish

13 yanvar – progon

14 yanvar – Bitiruv malakaviy (ijodiy) ishining namoyishi va himoyasi

“VATAN POSBONLARI – ELT YURT TAYANCHI” TEATRLASHTIRILGAN KONSERT

REJISSYORLIK TAHLILI

- | | |
|--------------------------------------|---|
| Mavzu: | - El-yurt osayishtaligi, vatan tinchligi |
| G‘oya: | - Posbonlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur |
| Oliy maqsad: | - Tadbir orqali har bir tomoshabin, o‘quvchini vatan himoyasiga chorlash, ular qalbidagi vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirish, sahnaviy ko‘rinishlar orqali tinchlikni va osayishtalikni ulug‘lash, tinchlikning bebaho ne‘mat ekanligini sahnaviy badiiy vositalar orqali namoyish etish. |
| Janr: | - Teatrlashtirilgan konsert |
| Prolog: | - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi sadolarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining sahna olib chiqilishi |
| Voqealar rivoji: | - Vatanni ulug‘lovchi, osayishtalikni qadrllovchi, vatan mehri mavzusidagi qo‘shiqlar, video roliklar va sahna ko‘rinishlaridan iborat |
| Kulminatsiya: | - “Terrorizmga qarshi” sahna ko‘rinishi |
| Final: | - Kollej o‘quvchilari ijrosidagi zamonaviy – ommaviy raqs. |
| Tomoshaning dekorativ bezagi: | - Tadbir kollejning liboslar ko‘rgazmasi foyesida o‘tkazilishi munosabati bilan, foye to‘laqonli mavzuga oid bezatilgan. Foyega harbiylar hayotiga bog‘liq turli qurol-aslahalar, foto suratlardan iborat ko‘rgazmali vositalar qo‘yilgan. Foyening asosiy sahnasiga video monitor o‘rnatilgan. Mazkur video monitordan tadbir davomida harbiylar hayotiga oid lavhalar berib boriladi. |

“VATAN POSBONLARI – ELT YURT TAYANCHI” TEATRLASHTIRILGAN KONSERT

D A S T U R I

1. Boshlovchilar chiqishi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi sadolarida sahnaga O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i olib chiqilishi.
3. Kollej direktori tabrigi.
4. Kollej mehmoni podpolkovnik Ashurov Bahrom Ergashevich tabrigi.
5. 2-kurs o‘quvchilari ijrosida “Vatan madhi” qo‘shig‘i. (Video monitordan lavha beriladi.)
6. 2-kurs rus guruhi o‘quvchilari ijrosida zamonaviy harbiylar raqsi.
7. Kollejning iqtidorli o‘quvchilari tomonidan tayyorlangan gimnastika ko‘rgazmasi namoyishi.
8. Kollejning iqtidorli o‘quvchilari tomonidan “Terrorizmga qarshi” sahna ko‘rinishi.
9. Kollej qizlari ijrosida zamonaviy raqs.
10. Kollej qizlari ijrosida sahna ko‘rinishi.
11. 3-kurs o‘quvchilari ijrosida zamonaviy qo‘shiq.
12. “Yoshlar norkomaniyaga qarshi” sahna ko‘rinishi.

I O'zbekiston Qurolli Kuchlari o'tgan tarixan qisqa davrda murekxab shakllanish yo'lini bosib o'tdi va bugungi kunda son jihatdan ixcham, harakatchan, zamonaviy talablarga javob beradigan, yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan armiya sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Qurolli Kuchlarni izchil isloh etish davomida prinsipial yangi tashkiliy-shrat tuzilmalarini, harbiy boshqaruv tizimlarini, turli qo'shin turlari harakatlarini muvofiqlashtirish va ularning hamkorligini ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish, harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligini va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni tubdan yaxshilash bo'yicha ko'lamli va ma'no-mazmuniga ko'ra ulkan va beqiyos ishlar amalga oshirildi.

Dunyodagi vaziyat shiddat bilan o'zgarib, xavfsizlikka nisbatan tahdid va xatarlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish va ularning jangovar tayyorgarligini, mamlakatimizga qarshi qaratilgan har qanday tajovuzga o'z vaqtida va munosib zarba berish qobiliyatini oshirishni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

ISLOMKARIMOV

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA
MADANIYAT INSTITUTI
"KINO, TELEVIDENIYE VA RADIO
SAN'ATI" FAKULTETI
"ESTRADA VA OMNIYATY TOMOSHALAR
SAN'ATI" KAFEDRASI**

**"VATAN POSBONLARI – EL YURT
TAYANCHI"**

**14 YANVAR "VATAN HIMOYACHILARI
KUNI" HAMDA O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI
TASHKIL TOPGANING
25 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN**

TEATRLASHTIRILGAN KONSERT



TAKLIFNOMA

TOSHKENT 2017

Hurmatli _____ <i>Sizni 2017 yil 14 yanvar kuni soat 14.00 da "Vatan himoyachilari kuni" hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil topganining 25 yilligiga bag'ishlangan</i> “VATAN POSBONLARI – ELT YURT TAYANCHI” <i>deb nomlangan taatlashirilgan konsert dasturiga taklif etamiz.</i> <i>Manzil: Benkov nomidagi Respublika Rassomlik kolleji</i> <i>Anjumanlar saroyi</i>	“VATAN POSBONLARI – ELT YURT TAYANCHI” TEATRLASHTIRILGAN KONSERT D A S T U R I 1. Boshlovchilar chiqishi 2. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi sadolarida sahnaga O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i olib chiqilishi 3. Kollej direktori tabrigi 4. Kollej mehmoni podpolkovnik Ashurov Bahrom Ergashevich tabrigi 5. 2-kurs o'quvchilari ijrosida “Vatan madhi” qo'shig'i (Video monitoridan lavha beriladi) 6. 2-kurs rus guruhi o'quvchilari ijrosida zamonaviy harbiylar raqsi 7. Kollejning iqtidorli o'quvchilari tomonidan tayyorlangan gimnastika ko'rgazmasi namoyishi	8. Kollejning iqtidorli o'quvchilari tomonidan “Terrorizmga qarshi” sahna ko'rinishi 9. Kollej qizlari ijrosida zamonaviy raqs 10. Kollej qizlari ijrosida sahna ko'rinishi 11. 3-kurs o'quvchilari ijrosida zamonaviy qo'shiq 12. “Yoshlar norkomaniyaga qarshi” sahna ko'rinishi Sahnalashtiruvchi rejissyor: ROBIYA RIZAYEVA Badiiy rahbar: JAHONGIR MAMATQOSIMOV
---	---	---

2017 YIL **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI** **SOAT**
14 YANVAR **MADANIYAT VAZIRLIGI**
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA **14.00**
MADANIYAT INSTITUTI

“ESTRADA VA OMMAVIY TOMOSHALAR SAN’ATI”
KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY (IJODIY) ISHI

VATAN POSBONLARI - EL YURT'TAYANCHI



14 YANVAR “VATAN HIMOIYACHILARI KUNI” HAMDA
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL
TOPGANINING 25 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN

TEATRLASHTIRILGAN KONSERT

Sahnalashtiruvchi rejissyor:
ROBIYA RIZAYEVA

MANZIL: RESPUBLIKA RASSOMLIK KOLLEJI